

VOLUME #4
ISSUE#03,
MART 2026



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

31.03.2026-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2026-yil 4-soni 3-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 4, Issue 3, Mart 2026

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasida mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



**“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA HIJRAT(KO‘CHISH)
MOTIVINING DINIY VA IJTIMOYIY TALQINI(JAMOLIDDIN OBRAZ MISOLIDA)**

Jo‘raqulov Sardor,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti

joraqulobsardor33@gmail.com

+998997770541

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Jamoliddin obrazining hijrat masalasi doirasida diniy talqin va undan tashqari ijtimoiy va etnoma‘daniy kontekstda tahlil qilinadi. Maqolada badiiy matn tahlili etnografik va tarixiy kuzatishlar bilan uyg‘un holda olib borilib, Jamoliddin obrazi orqali Tog‘ay Murod nasrida hijrat tushunchasining ko‘p qatlamli mazmun kasb etishi ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘z: Tog‘ay Murod nasri, Jamoliddin obrazi, hijrat talqini, xo‘jalik migratsiyasi, dehqonchilik va bog‘dorchilik, mehnat migratsiyasi.

Abstract: This article analyzes the issue of migration (hijrah) embodied in the character of Jamoliddin in Togay Murad’s novel “Otamdan qolgan dalalar” beyond the framework of traditional religious interpretation, within a broader socio-economic and ethnocultural context. The study combines literary text analysis with ethnographic and historical observations. Through the image of Jamoliddin, the article scientifically elucidates the multi-layered semantic nature of the concept of hijrah in Togay Murad’s prose.

Keywords: Togay Murad’s prose, the image of Jamoliddin, interpretation of hijrah, economic migration, agriculture and horticulture, labor migration.

Аннотация: В данной статье проблема хиджры, раскрытая через образ Джамолиддина в романе Тогая Мурада «Otamdan qolgan dalalar», анализируется вне рамок традиционного религиозного толкования — в социально-экономическом и этнокультурном контексте. Анализ художественного текста проводится в сочетании с этнографическими и историческими наблюдениями. На основе образа Джамолиддина научно освещается многослойный смысл понятия хиджры в прозе Тогая Мурада.

Ключевые слова: проза Тогая Мурада, образ Джамолиддина, интерпретация хиджры, хозяйственная миграция, земледелие и садоводство, трудовая миграция.



Kirish: Jahon adabiyotida hijrat va ko'chish motivi inson taqdiri, e'tiqodi va ijtimoiy muhit bilan uzviy holda tasvirlanadi. Sharq adabiyotida hijrat ko'pincha diniy-axloqiy mazmunda talqin etilsa, G'arb adabiyotida u ijtimoiy-iqdisodiy zarurat bilan bog'liq holda yoritiladi. O'zbek adabiyotida ham ko'chish motivi xalq og'zaki ijodidan (Alpomish nazarda tutilyapti. S.J) to bugungi zamonaviy adabiyotimizgacha davom etib kelayotgan motiv hisoblanadi. Zamonaviy adabiy jarayonimizda ham bu motiv yuqorida zikr qilganimiz kabi turlicha talqin etiladi. Xossatan zamonaviy nasrimizda o'zgacha uslubi bilan ajralib turuvchi ijodkor Tog'ay Murod nasrida ham hijrat (ko'chish) motivi chuqur falsafiy va ijtimoiy madaniy ma'no kasb etishini kuzatish mumkin. Biz quyida shuni tahlil qilishga qaror qildik.

Manbalar tahlili: Asardagi asosiy asosiy g'oyaga hizmat qiluvchi epizodlarda ham yozuvchi qo'shimcha g'oya yuklashi mumkin. "Islom dini, uning falsafasi, diniy e'tiqod qadriyatlari haqidagi tasavvurimizni kengaytirmog'imiz zarur. Bularning bari kishilardagi eng insoniy qudrat bo'lmish imondan boshlanadi, imonga kelib taqaladi, eng ezgu fazilatlar imonli qalblar maydonida ko'karadi"¹. O'zbekning shoh asari "O'tkan kunlar" romani albatta. Bu asarning o'qirmanlar qo'lidan tushmasligining asosiy sabablaridan biri diniy e'tiqod asosiy tasvir vositasiga aylangani, bosh qahramonlardagi e'tiqodning sofliqi, butunligidir. Adabiyotshunos Bahodir Karim "Daloyil o'qiyotgan Yusufbek hoji" maqolasida "Abdulla Qodiriy Yusufbek hojini aynan hojiligini e'tibor bilan yuksak maqomga ko'tarib qo'ygandir. "Bu nur yuzli siymo ta'latidan taralgan yog'du butun roman borlig'iga oydinlik bag'ishlaydi. Hojilik sifati Yusufbekning din arkonlarini to'kis ado etuvchi halol, pokiza bir inson ekanini anglatadi"² deb aytadi. "Otamdan qolgan dalalar" romanida uch avlodning taqdiri yurtda kechadigan mustamlaka siyosat bilan chambarchas holatda tasvirlanadi. Asar "*Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi. Suv egilmish tollar majnun-majnun sollaradi.... Cho'lpon yulduz poyida sajda etadi*"³ (keying o'rinalarda shu asar deb ketiladi S.J), ushbu tasvir Jamoliddinning harakati va turmush sharoiti orqali ruhiyatini ham ochib berishga hizmat qilgan. Jamoliddin ketmon asarda hech bir o'rinda e'tiqodiga qarshi chiqmaydi, g'ayridinlar bilan yo'li kesishishini xohlamaydi, ovqatlanadigan paytida ham orqa o'girib o'tiradi. Haromdan hazar qiladi, kofir oyog'i yetmagan yer izlaydi halol mehnat qilishni hohlaydi. E'tiqodi mustahkamligidan kofir oyoq bosgan yerni harom sanaydi. "Ay, kofir!-deydi. - Bir dala'mni harom qilding! Endi bu dala'mni-da bulg'ama!"⁴. Ma'lumki, harom va halolni farqlash – islomda asosiy talablardan

¹ Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Имон. "Камалак". Т.: 1992. – 160 б.

² <https://ziyo.uz/>; (batasif qarang Bahodir Karimov. Daloyil o'qiyotgan Yusufbek hoji. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 2003 yil 15-soni)

³ Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. Роман. Т.: "Zukko kitobxon". 2022. 15-bet

⁴ Shu asar 21-bet



biri, o'zbek milliy qadriyatlarining ajralmas qismi. Tadqiqotchi Z.Suvonov ham Jamoliddin obraziga ta'rif berib "Jamoliddin ketmon baquvvat, kuch-g'ayratga to'la, iymon etiqodli, ornomusi o'zidan-da kuchli bir musulmonga beriladigan hamma hislat unga ham berilgan obrazdir"⁵ obraz haqidagi yuqori fikrlarimizni asoslaydi. Jamoliddin ketmonning hijrat qilishining asosiy sababi albatta e'tiqodi bilan bog'liq jarayon hisoblansada bizning e'tiborimizni yana bir jihati tortdi. Bu talqin orqali Jamoliddinning(Tog'ay Murodning ham S.J) e'tiqodiy qarashlariga qarshi chiqish yoki rad etish emas, balki kontekst orqali qilingan tahlilimiz orqali qo'shimcha qilish. Asarda ko'p marta takrorlangan dehqonchilik va bog'dorchilik termini va bu terminlarning aynan obrazlar tilidan aytilishida ham qandaydir ma'no ilg'adik. Asarning boshlanishi "*Men farg'onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo'laman*"⁶ degan ta'rif va Jamoliddinning kunlik hayoti ham aynan dehqonchilik bilan bog'liqligi yoki Surxoni aqrabning "*Men Surxoni Aqrab qo'ligul o'g'li bo'laman*"⁷ ta'rif ham bu avlodning butun faoliyati dehqonchilik va bog'dorchilik bilan chambarchas bo'lishi bilan ilmini ham chuqur o'zlashtirganini ko'rish mumkin. Endi tarixga bir nazar solsak Surxon vohasi asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgani xech kimga sir emas va bahsli vaziyat ham emas fikrimizcha. Shunday bo'lsada taniqli entograf, O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasini tadqiq etgan olim B.X.Karmyeshva "*В оазисах юга Средней Азии земледелие и особенно садоводство получили широкое развитие сравнительно поздно и во многом были связаны с переселением населения из других районов*"⁸ ya'ni O'rta Osiyoning janubiy vohalarida dehqonchilik, ayniqsa bog'dorchilik nisbatan kech rivojlangan bo'lib, bu jarayon ko'p jihatdan boshqa hududlardan aholi ko'chib kelishi bilan bog'liqligini ta'kidlagani(Izoh bizniki S.J) bizning tahlilimiz uchun asosli ekanligini ko'rsatsa kerak. Surxondaryo hududi geogarfik va iqlimiy jihatdan yerlarni o'zlashtirish vas sug'riladigan dehqonchilik uchun qulay hudud bo'lgan. "Surkhan oasis has long been considered a region with a developed culture of settled irrigation farming. Favorable natural-geographic environment, climate and wide flat areas created favorable opportunities for the emergence and development of agriculture in this area"⁹(*Surxan vohasi uzoq vaqt davomida sug'oriladigan dehqonchilik madaniyati rivojlangan hudud sifatida qaralgan. Foydali tabiiy-geografik sharoit, iqlim va keng tekisliklar bu hududda qishloq xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratgan.*Tarjima bizniki S.J). Yuqoridagi tariflarni berib "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Jamoliddin obrazi orqali yozuvchi Vodiy hududidan Voha hududiga

⁵ Сувонов Завкиддин. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. PhD диссертацияси. Т.: 2019. – 163 б.

⁶ Shu asar 15-bet

⁷ Shu asar 42-bet

⁸ Кармышева Б.Х. Узбекское население юга Средней Азии. – М.: Наука, 1976

⁹ Dulanov O.Y. Types of Farming of Hundreds (Juz) Inhabiting the Surkhan Oasis. Modern Science and Research, 2023, Vol. 2, No. 9, pp. 161–165. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24308>



dehqonchilik va bog'dorchilikning ham kirib kelganini ramziy ma'noda ifodalaydi desak yanglishmagan bo'lamiz. Ya'ni Jamoliddin ketmon orqali vodiy ma'daniyatiga xos bo'lgan yerga munosabat, mehnat etikasi va bog'dorchilik an'analarning voha hududiga kirib borishini badiiylashtiradi. Bugungi Surxondaryo viloyatida xalq orasida "Farg'onachi" mahallarning borligi va bu mahallalar asosan dehqonchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashtirilgani roman voqealarining tarixiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak Tog'ay Murod Jamoliddin obrazi orqali nafaqat shaxs taqdiri balki hududlararo madaniy va xo'jalik tajribasining migratsiyasini aks ettirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida Jamoliddin obrazi orqali yozuvchi Farg'onadan Surxondaryo vohasiga bog'dorchilik va dehqonchilik madaniyati kirib borishini badiiy tarzda tasvirlaydi. Ko'plab adabiyotshunoslar bu hijratni diniy e'tiqod doirasida baholashsa-da (Albatta bu tahlilni ham rad etmaymiz, shunchaki qo'shimcha qilmoqchimiz S.J), tarixiy-iqtisodiy kontekst bu ko'chish jarayonining yana bir real asosini ko'rsatadi. Surxondaryo vohasi geografik va iqlimiy jihatdan yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan dehqonchilik uchun qulay hudud bo'lib, mahalliy aholining agrar faoliyati yerga ishlov berish va ekin yetishtirishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan Jamoliddinning vohaga kelib, bog'dorchilik bilan shug'ullanishi nafaqat badiiy tasvir, balki tarixiy va ijtimoiy haqiqatni aks ettiradi.

Bu roman orqali yozuvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni badiiy shaklda namoyon etadi, ya'ni xalqning mehnat madaniyati, hududiy migratsiya va dehqonchilik tajribasi badiiy matnga integratsiya qilingan, Jamoliddin obrazi orqali vohaning tarixiy va madaniy konteksti o'quvchiga yetkaziladi. Shu bilan birga, roman din va e'tiqod masalasidan tashqari, amaliy mehnat, yer ishlash va iqtisodiy faoliyat kabi real hayotiy jarayonlarni ham aks ettiradi, bu esa asarga ilmiy-tahliliy asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dulanov O.Y. Types of Farming of Hundreds (Juz) Inhabiting the Surkhan Oasis. Modern Science and Research, 2023, Vol. 2, No. 9, pp. 161–165.
<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24308>
2. Кармышева Б.Х. Узбекское население юга Средней Азии. – М.: Наука, 1976
3. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Имон. "Камалак". Т.: 1992. – 160 б.
4. Сувонов Завқиддин. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. PhD диссертацияси. Т.: 2019. – 163 б.
5. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. Роман. Т.: "Zukko kitobxon". 2022. 15-bet



KASB-HUNAR VA LAVOZIM NOMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SEMANTIK XUSUSIYATLARI: QIYOSIY LINGVISTIK TAHLIL

Xidirov Xusan Xasanovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Abdinazarov O'ktam

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi job title va o'zbek tilidagi kasb-hunar hamda lavozim nomlarining semantik qurilishi qiyosiy yo'sinda yoritildi. Tadqiqot markazida uch yo'nalish turadi: (1) nomlashning motivatsion manbalari (faoliyat, natija, vosita, institutsiya, status), (2) ma'no ko'chishi va ixtisoslashuv mexanizmlari (metonimiya, metafora, qisqartma, brendga o'xshash nomlar), (3) ijtimoiy-pragmatik qatlam (rasmiylik darajasi, prestij, gender neytralligi, "yumshoq" evfemistik nomlar). Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tizimida derivatsion-terminologik model (masalan, -chi/-kor/-shunos/-boz/-soz kabi ko'rsatkichlar) ma'no aniqligini kuchaytirsa, ingliz tizimida ko'p bo'g'inli nominal guruhlar (Senior/Lead/Head of..., Manager of..., Specialist in...) va abbreviaturalar semantik differensiallashuvni tezlashtiradi. Natijalar tarjima, rezyume yozish, mehnat bozoridagi klassifikatsiya hamda termin standartlashtirishda xatolarga olib keladigan "soxta ekvivalent"lar (chief–boshliq, manager–menejer, officer–xodim/inspektor, administrator–ma'mur/administrator)ni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: kasb nomi, lavozim atamasi, job title, semantik maydon, motivatsiya, ma'no ko'chishi, terminologiya, gender neytral birlik, prestij leksikasi, qiyosiy semantika.

Kirish. Global iqtisodiyot va raqamli mehnat bozorida lavozim nomi oddiy "etiketka" emas: u vazifa doirasi, vakolat, mas'uliyat, ierarxiya, maosh diapazoni, malaka talabi va hatto korporativ madaniyat haqida signallar beradi. Shu sababli kasb-hunar va lavozim nomlarini semantik jihatdan tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Ingliz tilida job titlelar xalqaro HR kommunikatsiyasining asosiy kodi bo'lib qolayotgan bir paytda, o'zbek tilida ham rasmiy hujjatlar, vakansiyalar, mehnat shartnomalari, davlat xizmatidagi shtat jadvali, ta'lim diplomi va sertifikatlar tilida atamalarni me'yorlashtirish dolzarb bo'lib bormoqda. Terminologik tizim rivoji, o'zlashmalar, variantlilik va moslashtirish muammolari haqidagi kuzatuvlar o'zbek terminologiyasi bo'yicha ishlarda qayd etiladi.

Muammo shundaki, "kasb" va "lavozim" bir xil tushuncha emas. Kasb ko'proq kompetensiya va faoliyat turiga bog'lansa (masalan, duradgor, shifokor), lavozim institutsional



rolni bildiradi (bo'lim boshlig'i, dekan o'rinbosari, loyiha menejeri). Ingliz tilida ham profession (doctor) va position (Head of Department) ajratiladi, ammo real ishlatishda ularning chegarasi ko'pincha bir-biriga kirishadi: "engineer" ham kasb, ham kompaniya ichida daraja ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Shu chalkashlik tarjima va standartlashuvda eng ko'p xato manbai.

Metodologiya. Ish qiyosiy-semantik va leksikografik yondashuvga tayandi. Material uch manbadan tuzildi: (1) ingliz va o'zbek tillarida kasb nomlari bo'yicha amaliy ro'yxatlar va ta'riflar (ta'limiy resurslar), (2) o'zbek terminologiyasi hamda kasb-hunar leksikasi xususida yozilgan ilmiy ishlarda berilgan nazariy mezonlar, (3) mehnat bozorida uchraydigan tipik lavozim nomlari strukturasi (Senior/Junior, Head/Chief, Specialist/Officer va h.k.) bo'yicha kuzatuvlar. Kasb-hunar leksikasi va terminlar tizimi tilning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi sifatida talqin qilinishi haqida umumiy izohlar mavjud.

Tahlil uch bosqichda bajarildi. Birinchi bosqichda nomlar "motivatsion semantika" bo'yicha kodlandi: faoliyat (teacher–o'qituvchi), ob'ekt (pediatrician–bolalar shifokori), natija (editor–muharrir), vosita/tehnologiya (welder–payvandchi), institutsiya (banker–bank xodimi), status/ierarxiya (director–direktor), nazorat funksiyasi (inspector–inspektor). Ikkinchi bosqichda "struktura semantikasi" ko'rildi: bir so'zli nom, ikki komponentli birikma, izofali konstruktsiya, predlogli birikma (Head of..., Manager of...), qisqartma (HR, CEO), va o'zbekcha affiksli derivatsiya. Uchinchi bosqichda pragmatik qatlam tahlil qilindi: rasmiy hujjat tili, korporativ e'lon tili, kundalik nutqdagi variant, prestij/ehtiyotkorlik (evfemizm) bilan berilgan nomlar.

Natijalar. Birinchi natija: motivatsion manbalar o'xshash, ammo kodlash usuli farqli. Har ikki til kasb nomlarini ko'pincha "ish-harakat" orqali motivatsiyalaydi. Inglizchada -er/-or agent suffiksi (teacher, driver, operator) juda faol; o'zbekchada -chi/-kor (-uvchi/-vchi bilan aralashib ketadigan holatlar ham bor) agentlik ma'nosini barqaror beradi. Biroq o'zbek tilida kasb nomi ko'pincha "soha + mutaxassis" (tibbiyot xodimi, axborot texnologiyalari mutaxassisi) shaklida ham ko'payadi, inglizchada esa "Specialist/Engineer/Analyst" kabi "umumiy bosh so'z" atrofida soha aniqlovchisi yig'iladi (Data Analyst, Marketing Specialist). Bu tip strukturada semantik markaz (head) inglizchada odatda o'ng tomonda (Analyst), o'zbekchada esa ba'zan bosh so'z o'ngda (mutaxassis), ba'zan chapda (o'qituvchi), kontekstga qarab farqlanadi.

Ikkinchi natija: ierarxik ma'no markerlari inglizchada ko'p, o'zbekchada esa ko'pincha lavozim tizimi bilan kodlanadi. Ingliz tilida Senior/Junior, Lead, Principal, Head, Chief, Deputy kabi komponentlar unvon darajasini semantik jihatdan "nomning ichida" ko'rsatadi. O'zbekchada ham katta/kichik, yetakchi, bosh, o'rinbosar kabi vositalar mavjud, lekin amaliyotda rasmiy tuzilma (bo'lim, boshqarma, departament) nomi bilan birga kelib, ierarxiya



ko'pincha tashkilot sxemasidan "o'qiladi": "Bosh mutaxassis", "Bo'lim boshlig'i", "Boshqarma boshlig'i". Bu farq tarjimada xatoga olib keladi: Chief specialist har doim "bosh mutaxassis" emas; ba'zan "yetakchi mutaxassis" yoki "katta mutaxassis" ierarxik moslikni aniqroq beradi.

Uchinchi natija: metonimik nomlash lavozim leksikasida juda kuchli. Ingliz tilida "officer" so'zi ko'plab institutsional rollarga yoyilgan (compliance officer, security officer). O'zbekchada "xodim" umumiy, "inspektor" nazorat, "mutaxassis" professional kompetensiya, "mas'ul" esa javobgarlik bo'yog'iga ega. Shu bois officer ↔ xodim/mas'ul/inspektor mosligi birga-bir emas; semantik komponent (nazoratmi, ijromi, rasmiy vakolatmi) ajratilmasa, tarjima "notabiiy" yoki "vakolatni noto'g'ri ko'rsatadigan" bo'lib qoladi.

To'rtinchi natija: gender neytralligi masalasi inglizchada tizimliroq, o'zbekchada esa asosan kontekst orqali hal bo'ladi. Ingliz tili oxirgi o'n yilliklarda fireman → firefighter, policeman → police officer kabi neytrallashuv tendensiyalarini kuchaytirdi; bu jarayon kasb nomlarida jamiyatdagi gender ideologiyasi bilan bog'liq. O'zbekchada grammatik jins kategoriyasi yo'qligi sababli ko'plab kasb nomlari o'zidan-o'zi neytral ko'rinadi, biroq ayrim sohalarda ruscha/inglizcha o'zlashmalar yoki an'anaviy stereotiplar orqali jinsiy belgi "implitisit" paydo bo'ladi (masalan, "styuardessa" kabi). 2026 yilda o'zbek kasb nomlarida gender jihatini tadqiq etishga doir ishlar ham paydo bo'layotgani masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Beshinchi natija: prestij va "yumshatish" semantikasi lavozim nomlarining eng tez o'zgaradigan qatlamidir. Ingliz korporativ muhitida "manager" juda keng yoyilgan, ba'zan real vakolatni oshirib ko'rsatadigan "title inflation"ga olib keladi (masalan, oddiy ijrochi rolga ham manager qo'yish). O'zbek mehnat bozorida ham "menejer" o'zlashmasi ko'p vazifalarga universal yopishtiriladi, natijada "menejer" semantik jihatdan bo'shashib, "idora xodimi"ga yaqinlashib qolishi mumkin. O'zbek terminologiyasida o'zlashmalar va variantlilik muammolari umumiy terminologik tadqiqotlarda ta'kidlanadi.

Muhokama. Olingan natijalar uchta katta xulosani majbur qiladi.

Birinchisi, kasb nomi va lavozim nomi o'rtasidagi semantik farq tarjima va normativ hujjatlarda qat'iy ajratilmasa, "vakolat" va "malaka" aralashib ketadi. Masalan, "director"ni hamma joyda "direktor" deyish semantik jihatdan xavfsizdek tuyuladi, lekin "director" ingliz tizimida ba'zan "board director" (kengash a'zosi) bo'lib, "ijrochi direktor"dan boshqa rol ni anglatadi; o'zbekchada esa "direktor" ko'pincha ijrochi rahbar. Shunday holatlarda semantik komponentlarni (boshqaruv, nazorat, strategiya, ijro) alohida belgilash kerak.

Ikkinchisi, inglizcha job titlelar ko'pincha "kompozitsion semantika"ga qurilgan: har bir komponent ma'noni qatlamlaydi (Senior + Data + Quality + Assurance + Engineer). O'zbekchada buni so'zma-so'z ko'chirish og'ir va hujjat tiliga mos kelmasligi mumkin.



Optimal strategiya: o'zbekcha "bosh so'z"ni tanlab, qolgan komponentlarni izchil aniqlovchi sifatida berish (masalan, "Ma'lumotlar sifati bo'yicha yetakchi muhandis"). Bu yerda mantiqiy tartib muhim: soha → yo'nalish → daraja → rol.

Uchinchisi, terminologik me'yor (norma) va bozor tili (vakansiya tili) o'rtasidagi tafovut doimiy. Bozor tili marketing qiladi, rasmiy termin esa aniqlikni saqlaydi. Shuning uchun standartlashuvda ikkita qatlamli yechim realistik: (a) rasmiy lavozim nomi (shtat jadvali uchun), (b) ommabop izoh (vakansiya e'loni uchun). Dadaboyevning terminologiya bo'yicha qo'llanmalarida ham termin tizimining rivoji va me'yorlashuv masalalari alohida yo'nalish sifatida qaraladi.

Xulosa. Qiyosiy tahlil kasb-hunar va lavozim nomlarining semantikasida bir tomondan umumiylik (agentlik, soha, vazifa, ierarxiya), ikkinchi tomondan esa kodlash usullarida farq (affiksial derivatsiya va nominal qo'shimchalarga ochiqlik vs kompozitsion nomlar va abbreviaturalar) borligini ko'rsatdi. Tarjima va me'yorlashuv uchun eng muhim tavsiya shunday: nomning "yadro semasi"ni aniqlamasdan turib, bir so'zli ekvivalent tanlash xavfli; avval rol (ijro/nazorat/rahbarlik), so'ng ierarxiya (senior/lead/bosh), keyin soha (IT, moliya, ta'lim), oxirida institutsional joylashuv (bo'lim/boshqarma/departament) tiklanishi kerak. Shundagina job titlelar ikki tilda ham mazmuniy moslikka yaqinlashadi va "prestijli, lekin noaniq" atamalar oqimi cheklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. 2019.
2. Andapulatoeva F. I. Terminlarining tildagi o'rni va ahamiyati. CyberLeninka. 2023.
3. Rahmonqulova S. K. qizi. Lexical–Semantic Features of Occupational Terms in English and Uzbek. Nauchny Impuls. 2025.
4. O'zbek tili terminologiyasi rivojining ba'zi masalalari. JournalSS. 2026.
5. Farangis R. O'zbek tilidagi kasb nomlarida gender... Phoenix Publication. 2026.



[Zn(APY)₂(H₂O)₂](AcOH)(H₂O) KOMPLEKS BIRIKMASINI OLISH VA UNING HIRSHFELD SIRT YUZASI TAHLILI

¹ Nazarov Y. E., ²Turayev X.X., ³Qo'zimurodova S.B.

¹Termiz davlat universiteti k.f.f.d.

²Termiz davlat universiteti k.f.d., prof.

³Termiz davlat universiteti talabasi

E-mail; nazarovy714@gmail.com

Annotatsiya. 6-aminopiridin-2-karbon kislotaning metall ionlari bilan ta'sirlashishi va uning metallokompleks birikmalarining xossalarini tadqiq qilish maqsadida, Zn(II)xlodid kristallogidрати bilan M:L 1:2 nisbatdagi koordinatsion soni oltiga teng bo'lgan, yangi kompleks birikmasi olinib, uning monokristali o'stirildi. Uning tarkibi va tuzilishi RTT yordamida aniqlandi. Kompleks birikmada ligandi bidentant holatda koordinatsiyalangan. Hirshfeld sirtini Crystal Explorer17.5 dasturi yordamida tahlil qilindi. Kompleks birikma kristalining IQ-spektri tahlil o'tkazilib, tegishli bog'larning tebranish chastotasi kuzatildi.

Kalit so'zlar. 6-aminopiridin-2-karbon kislota (APY), sirka kislota rux(II)xlodid, monokristall.

KIRISH.

Jahonda 2,6-almashingan piridin hosilalari hamda ularning d-metall tuzlari bilan hosil qilgan aralash ligandli kompleks birikmalarining tadqiqoti, ularning tarkibi, tuzilishi, xossalari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda [1,2]. Bu borada, yuqori konformasion harakatchan karbon kislotalar asosidagi ligandlarning oraliq metallar bilan yangi tuzilish va funksiyalarni o'zida namoyon etuvchi kompleks birikmalari sintezi, hosil bo'lgan kompleks birikmalar tuzilishining turli omillarga, jumladan, metall tabiatiga, ligand o'rinbosarining mavjudligiga bog'liqligini, shuningdek, markaziy ionga ligandning koordinatsiyalanishi, bog' tabiati hamda fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi[3,4].


6-aminopiridin-2-karbon kislotaning kompleks hosil qiluvchi xususiyatidan foydalanib, uning turli xil tarkibli kompleks birikmalari olingan.

Piridin hosilalarining luminesans, biologik faollik, kataliz va magnit hususiyatlari komplekslari o'rganilgan [5,6]. Shu sababli, almashtirilgan piridin asosidagi metall komplekslarini o'rganishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bu sohada tadqiqotlar olib borilgan [7].

Hozirgi vaqtda kimyogarlar metall ionlariga biriktirilgan donor atomlarining soniga qarab di, tri, tetra yoki ko'p ligandli komplekslar bo'lishi mumkin bo'lgan qiziqarli fizik-kimyoviy xossalari tufayli aralash ligand komplekslari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib bormoqda[8,9].




Zn(APY)₂(H₂O)₂(AcOH)(H₂O) kompleks birikmasi sintezi. Zn (II) xlorid kristallogidratidan ZnCl₂·6H₂O 0.122 gr (0.5 mmol), 0.138 gr (1 mmol) APY ni tegishli suv va sirka kislotada eritib, 1;2 mol nisbatdagi eritmaları tayyorlandi. Eritmalar aralastirildi. Soʻngra magnitli aralastirgich yordamida 60 °C da 30 minut davomida intensiv aralastirildi. Eritma xona haroratida qoldirildi. Natijada 10 kundan soʻng idish tubida och yashil rangli kompleks birikma kristali oʻsganligi kuzatildi. RTT analizi uchun yaroqli kristallar ajratilib, tekshirilganda [Zn(APY)₂(H₂O)₂](AcOH)(H₂O) tarkibli ekanligi aniqlandi. Unumi 86 % [Zn(APY)₂(H₂O)₂](AcOH)(H₂O) (Mr=453.16 g/ mol) ZnC₁₄H₂₀O₉N₄ tahlili nazariy jihatdan: C 37.07, H 4.44, N 12.35, O 31.77 % ni koʻrsatdi: maʼlum boʻldiki C 36.92, H 4.27, N 12.13, O 31.02 %. Reaksiya tenglamasi quyidagicha (1-sxema.).



1-sxema. [Zn(APY)₂(H₂O)₂](AcOH)(H₂O) kompleksining olinishi

MUHOKAMA. Markaziy atom Zn(II) ning koordinatsion soni 6, sp³d² holatda gibrilalanishga ega. Ushbu kompleks birikmada ikkala APY anioni Ni(II) ioniga karboksil ionidagi kislorod atomi va piridin halqasidagi azot atomi orqali bidentant holatda koordinatsiyalangan (1-rasm).




1-rasm. [Zn(APY)₂(H₂O)₂](AcOH)(H₂O) kompleksining molekulyar tuzilishi

Ikki suv molekulasini ham markaziy atomga donor-akseptor bogʻlanish orqali bogʻlangan, natijada oktaedrik shakl yuzaga kelgan. Tashqi sferada bir molekula sirka kislotasi va suv molekulasini oʻzaro vodorod bogʻlanish orqali bogʻlangan. Kompleksning ichki sferada N2--H2B..O1 vodorod bogʻlanishi mavjud.



Hirshfeld sirtini Crystal Explorer 17.5 dasturi yordamida tahlil qilindi. Qizil va ko'k dog'larning d_{norm} bo'yicha standart o'lchamlari mos ravishda -0,604 va 1,17 ga teng.

Hirshfeld yuzasini tahlil qilish natijasida quyidagi o'zaro ta'sirlar aniqlandi: O... H/H... O (22,4%), H... H (46,5%), H... C/C... H (11,3%) Chuqur qizil dog'lar qo'shni turlar bilan kuchli yaqin o'zaro ta'sirni ko'rsatadi. Kompleks birikmaning molekulasida uchastkaning o'rtasida qisqa va tor tikanlar bo'lgan keng hudud umumiy Hirshfeld sirtlarining O-H/H-O o'zaro ta'siri sifatida aks ettiriladi va bu kompleks uchun hisoblangan eng yuqori foizdir va bu dipik lagandning metall kompleksi bilan solishtirish mumkin.



2-rasm. $[\text{Ni}(\text{APY})_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{AsOH})(\text{H}_2\text{O})$ kompleksining uch o'lchamli Hirshfeld sirtining d_{norm} bo'yicha ko'rinishi.

Ni(II) kompleksining d_{norm} uchun Hirshfeld yuzasi xaritasi (2-rasm) ko'rinib turibdiki, o'tkir qizil rang sirka kislotasi va suv molekulasining liganddagi karboksilik guruhining kislorodi orqali molekulalararo vodorod bog'lanish kuzatilganligini ko'rsatadi.

Xulosa: Tadqiqotlar natijasida 2,6-piridindikarbon kislotasining nikel(II) atsetat va xlorid kislotaning M:L 1:2 nisbatdagi kompleks birikmasi sintez qilindi. Sintez qilingan kompleksning tarkibi va tuzilishi RTT yordamida aniqlandi. Hirshfeld sirti tahliliga ko'ra molekula tarkibidagi atomlarning asosiy o'zaro ta'sirlashuvlarni O... H/H... O (50,8%), H... H (18,9%), H... C/C... H (10,8%).

ADABIYOTLAR

1. Li Z. H. et al. Synthesis, structure, and catalytic properties of a copper (II) coordination polymer material constructed from 5-nitro-1, 2, 3-benzenetri carboxylic acid and bis (4-pyridylformyl) piperazine mixed ligands //Journal of Solid State Chemistry. – 2019. – T. 278. – C. 120908.

2. Xi-Shi T., Hong-Mei G., Qian-Qin G. Synthesis, crystal structure and antitumor activity of a novel Zn (II) complex with 2-(nicotinoyloxy) acetic acid ligand //Chinese Journal of Structural Chemistry. – 2018. – T. 37. – №. 7. – C. 1052-1056.



3. Xi-Shi T. et al. The crystal structure of diaqua-bis (6-aminopicolinato- κ 2 N, O) magnesium (II), $C_{12}H_{14}O_6N_4Mg$ //Zeitschrift für Kristallographie-New Crystal Structures. – 2020. – T. 235. – №. 3. – C. 605-606.

4. Xi-Shi T. et al. Bis (ethanol- κ O)-bis (6-aminopicolinato- κ 2N, O) magnesium (II), $C_{16}H_{22}O_6N_4Mg$ //Zeitschrift für Kristallographie-New Crystal Structures. – 2019. – T. 234. – №. 2. – C. 289-290.

5. Du X., Wang C. Crystal structure of bis (6-aminopyridine-2-carboxylato- κ 2 O, N)-copper (II), $C_{12}H_{10}O_6N_4Cu$ //Zeitschrift für Kristallographie-New Crystal Structures. – 2020. – T. 235. – №. 5. – C. 1007-1008.

6. Li Z. H. et al. Synthesis, structure, and catalytic properties of a copper (II) coordination polymer material constructed from 5-nitro-1, 2, 3-benzenetri carboxylic acid and bis (4-pyridylformyl) piperazine mixed ligands //Journal of Solid State Chemistry. – 2019. – T. 278. – C. 120908.

7. Hong D., Ye J. Q., Guo W. B. Crystal structure of bis (6-aminopyridine-2-carboxylato- κ 2O, N)-bis (N, N-dimethylformamide- κ 1 O) zinc (II), $C_{18}H_{24}N_6O_6Zn$ // Zeitschrift für Kristallographie-New Crystal Structures. – 2023. – T. 238. – №. 3. – C. 529-531.

8. Nazarov Y.E., Turaev Kh.Kh., Suyunov J.R., Ibragimov B.T., Alimnazarov B.Kh., Ashurov J.M. 8-Hydroxyquinolinium trichlorido(pyridine-2,6-dicarboxylic acid- κ 3O,N,O')copper(II) dihydrate Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications, 2024, 80(10), c 1049–1053 <https://doi.org/10.1107/S2056989024009186>

9. Khayit Kh. Turaev, Yusufjon E. Nazarov, Abdukadir Kh. Tashkulov, Sherzod A. Kasimov, Bekmurod Kh. Alimnazarov, Jamshid M. Ashurov, Aziz B. Ibragimov, Takashiro Akitsu, Changkun Xia, Abul Monsur Showkot Hossain. Synthesis of mononuclear Ni (II) and binuclear Cu (II) complexes from pyridine-2, crystal structure and Hirschfeld surface analysis, 6-dicarboxylic acid with monothiolamine and hydrochloric acid solution //Structural Chemistry. – 2025. – C. 1-13 <https://link.springer.com/article/10.1007/s11224-025-02468-9>



UMWELTSCHUTZ UND NACHHALTIGE ENTWICKLUNG

Khurramova Sevinch,

Studentin im 2. Studienjahr am Lehrstuhl

für deutsche Sprache der Fakultät für

Fremdsprachenphilologie der Staatlichen Universität Termez

Anmerkung: Der vorliegende Artikel beschäftigt sich mit der zentralen Bedeutung des Umweltschutzes und der nachhaltigen Entwicklung in der modernen Gesellschaft. Angesichts globaler Probleme wie Klimawandel, Ressourcenknappheit und Umweltverschmutzung wird untersucht, wie Bildung, Technologie und gesellschaftliches Engagement zur Lösung dieser Krisen beitragen können. Besonderes Augenmerk gilt der Rolle junger Menschen und Studierender, die als treibende Kraft für eine nachhaltige Zukunft gelten.

Schlüsselwörter: Umweltschutz, Nachhaltige Entwicklung, Klimawandel, Ressourcenmanagement, Erneuerbare Energien, Nachhaltiger Konsum, Umweltbewusstsein, Ökologische Verantwortung.

Einleitung

In den letzten Jahrzehnten hat sich das Bewusstsein für Umweltprobleme weltweit stark verändert. Während in der Vergangenheit industrielle Entwicklung und wirtschaftliches Wachstum Vorrang hatten, erkennen heute immer mehr Länder, dass unkontrolliertes Wachstum zu irreversiblen Schäden an der Natur führt. Begriffe wie „Nachhaltigkeit“ und „ökologische Verantwortung“ sind längst nicht mehr nur Themen für Wissenschaftler – sie betreffen jeden einzelnen Menschen. Der Klimawandel, die Abholzung der Wälder, der Verlust von Biodiversität und die Verschmutzung von Luft und Wasser gefährden das ökologische Gleichgewicht der Erde. Diese Herausforderungen machen deutlich, dass wir unser Verhalten ändern müssen, um den Planeten für künftige Generationen zu bewahren. Bildung spielt dabei eine entscheidende Rolle: Nur wer über Umweltprobleme informiert ist, kann auch verantwortungsbewusst handeln.

Hauptteil

1. Die Bedeutung des Umweltschutzes



Umweltschutz bedeutet nicht nur, Natur und Tiere zu bewahren, sondern auch, das Überleben der Menschheit langfristig zu sichern. Eine gesunde Umwelt ist die Grundlage für sauberes Wasser, frische Luft und eine stabile Ernährung. Dennoch werden jährlich Millionen Hektar Regenwald abgeholzt und Tonnen von Plastikmüll in die Ozeane geworfen. Das zeigt, dass politische Maßnahmen und internationale Kooperationen allein nicht ausreichen – individuelles Engagement ist ebenso notwendig.

2. Nachhaltige Entwicklung als globales Ziel

Der Begriff „nachhaltige Entwicklung“ (engl. Sustainable Development) wurde erstmals 1987 im sogenannten Brundtland-Bericht definiert. Er bedeutet, dass wirtschaftliche, soziale und ökologische Interessen im Gleichgewicht stehen sollen. Die Vereinten Nationen haben 2015 die Sustainable Development Goals (SDGs) verabschiedet – 17 Ziele, die bis 2030 erreicht werden sollen. Dazu gehören die Bekämpfung der Armut, der Klimaschutz, der Zugang zu Bildung und die Förderung erneuerbarer Energien.

3. Die Rolle der Jugend und Bildung

Junge Menschen, insbesondere Studierende, sind heute eine der wichtigsten Kräfte im Kampf gegen Umweltzerstörung. Weltweite Bewegungen wie „Fridays for Future“ zeigen, dass Jugendliche bereit sind, Verantwortung zu übernehmen und Veränderungen zu fordern. An Universitäten entstehen immer mehr Studiengänge zu Nachhaltigkeit, Ökonomie und Umweltmanagement, die den Studierenden Wissen und Motivation für eine grünere Zukunft vermitteln. Auch alltägliches Verhalten spielt eine große Rolle: Mülltrennung, Verzicht auf Einwegplastik, energiesparendes Verhalten und umweltfreundliche Mobilität (z. B. Fahrrad oder öffentlicher Verkehr) sind einfache, aber wirksame Schritte. Bildungseinrichtungen müssen daher nicht nur Wissen über Umweltfragen vermitteln, sondern auch umweltfreundliche Werte und Lebensstile fördern.

4. Herausforderungen der nachhaltigen Entwicklung

Trotz vieler positiver Initiativen gibt es weiterhin große Hindernisse. In vielen Ländern steht wirtschaftlicher Profit immer noch über ökologischer Verantwortung. Technologische Lösungen wie erneuerbare Energien oder Recyclingprozesse sind teuer und nicht überall verfügbar. Zudem mangelt es in ärmeren Regionen an Bewusstsein und Bildung in Umweltfragen.

Ein weiteres Problem ist die globale Ungerechtigkeit: Industrieländer verursachen den größten Teil der Umweltverschmutzung, während Entwicklungsländer die schwerwiegendsten Folgen tragen. Deshalb ist internationale Zusammenarbeit dringend notwendig.



Fazit

Nachhaltige Entwicklung und Umweltschutz sind keine optionalen Themen mehr – sie sind eine Überlebensfrage. Jeder Mensch trägt Verantwortung für die Umwelt, unabhängig von Alter oder Beruf. Besonders junge Menschen haben die Möglichkeit, durch ihre Entscheidungen und ihr Engagement die Zukunft aktiv mitzugestalten.

Nur durch Bildung, Innovation und gemeinsames Handeln kann die Menschheit eine nachhaltige Balance zwischen Fortschritt und Natur erreichen. Es ist an der Zeit, nicht nur über den Schutz der Erde zu sprechen, sondern ihn auch täglich zu praktizieren.

Literaturverzeichnis

1. Schneider, M. (2020). Nachhaltigkeit und Ökologie. Stuttgart: Kohlhammer.
2. Bauer, K. (2021). Junge Generation und Klimawandel. Berlin: Beltz Verlag.
3. Zimmermann, R. (2019). Umweltbewusstsein im Alltag. Hamburg: Rowohlt.
4. Klein, A. (2022). Globale Umweltpolitik und nachhaltige Entwicklung. München: Oldenbourg.
5. Weber, F. (2023). Bildung für nachhaltige Zukunft. Frankfurt am Main: Campus Verlag.



CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANI: QIYOFALAR ORTIDAGI SIRLI QISMATLAR

Bozorova Zulxumor Ilxom qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 301- guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotning yorqin namoyondalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanidagi obrazlar tahlil qilinadi. Obrazlarni tahlil qilish jarayonida Cho'lponning yovuchilik mahoratiga bevosita guvoh bo'lamiz. Asar qahramonlarining sirli taqdiri orqali yozuvchi o'sha davr muhitini tasvirlab beradi.

Kalit so'zlar: "Kecha va kunduz", Razzoq so'fi, Qurvonbibi, Zebiniso, Saltanat, Hamro ena, Akbarali mingboshi, Miryoqub epaqa.

Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko'rgan Cho'lpon boshqa jadidlar qatori o'z asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga kirishgan.

Kecha va kunduz — o'zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho'lpon tomonidan yozilgan roman. Bu asarga „O'tkan kunlar asari darajasida“ deb baho berilgan. U o'zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya bo'lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi „Kecha“ 1933-1934-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to'liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho'lpon romaniga „Hamal keldi — amal keldi“ maqolini epigraf qilib olgan{1}.

„Kecha va kunduz“ romanining faqat „Kecha“ qismi mavjud. Olimlarning taxminicha, Cho'lpon „Kunduz“ qismini ham rejalashtirgan yoki yozgan bo'lishi ham mumkin. Dilogiyaning to'liq emasligi olimlarga Cho'lponning maqsadi haqida taxmin qilish imkoniyatini beradi.

Ba'zi olimlar Cho'lpon faqat „Kecha“ni yozgan, „Kunduz“ qismi borligi haqidagi mulohazalar sovet kuzatuvchilarini mamnun qilish uchun aytilgan deyishadi. Boshqalari esa



Cho'lpon „Kunduz“ni ham yozgan, lekin NKVD uni hibsga olishganda asar musodara qilinib, yo'q qilingan deb hisoblashadi [2].

Romanning „kunduz“ deb atalgan ikkinchi qismining taqdiri to'g'risida ma'lumot yo'q. Holbuki „Kecha“ da tasvirlangan voqealarning mantiqiga ko'ra romanning „Kunduz“ qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qrim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi. Birinchi kitobdagi tasvir etilgan voqea birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekiston viloyatlarining birida bo'lib o'tadi. Asardagi asosiy g'oya mavjud tuzumni tag — tomiri bilan o'zgartirishdir[3].

„Kecha va Kunduz“ romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og'ir kulfatu, mashaqqatlarga to'liq hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta'sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo'lgan go'zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi. Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so'fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko'rsatib beradi[4].

Asar o'zining obrazlari ko'pligi bilan ham boshqa asarlardan ajralib turadi. Undagi obrazlarning xilma-xilligi, ularning taqdiri o'quvchini hayratga soladi. Cho'lpon kechada qahramonlar shaxsiyatini ochib berishda realistik tasvirlashdan foydalanadi. Hech qanday bo'yoqlarsiz, ayblarini berkitmay asl holicha tasvirlab bergan. Agar birgina Razzoq so'fi obraziga to'xtaladigan bo'lsak, uning tug'ilgan vaqtidan qanday xarakter egasi bo'lganligini ko'ramiz.

Xotin-xalaj orasida o'zining gapdonligi, hazilkashligi bilan tanilgan Hamro ena chaqaloqqa qarata “ hay mehmon nega homushsiz, kimdan xafa bo'lib tug'ildingiz, kuling, kulimsirang” deganlarining o'ziyoq Razzoq so'fi obrazining qanchalik jiddiy ekanligini, hatto tug'ilganida ham boshqa bolalarga o'xshamaganligini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari jadidnamo bir hamshahrining Razzoq so'fini ta'riflashini olaylik, “ ko'rgazmaga qo'yiladurg'on ajoyib maxluqlardan edi” deyishining o'ziyoq Razzoq so'fining butun hayoti davomida kulmasdan har doim bir xil qiyofada, jiddiy yurganligini bizga ochib beradi.

Razzoq so'fi obrazi “o'zidan kattalar gaprsa xo'p-xo'p, o'zidan kichiklar gapirsa chidab tura olmaydigan obraz edi. Bundan ko'rinadiki u faqat eshonlarning gapiga kirgan, biror ishni eshonlar bilan maslahatlashmay qilmas edi. Tom ma'noda eshonlarga sig'ingan obrazdir.

O'sha davr nuqta'i nazari bilan qarasa rlar ayollarini ismini aytib chaqirishmagan, katta qizining ismini aytib chaqirishgan, lekin Razzoq so'fi bu masalada ham boshqalardan ajralib turgan. U xotini Qurvonbibini



Fitna deya chqirganiga asar davomida guvoh bo`lamiz. Uning bunday deishining ham sabablari bor edi. Qurvonbibi erining kayfiyatiga qarab biror masala haqida gap ochardi, agar erining kayfiyati yo`q bo`lsa gapni uzoqdan olib kelar, eriga avval boshqa gaplarni gaprib keyin unga asosiy masalani aytar edi, mana shu vaziyatta Razzoq so`fi Qurvinbibiga qarata fitna, Fitnasan der edi.

Asarda Razzoq so`fining qattiqqo`l ota ekanligiga ham guvoh bo`lamiz. Qizi Zebinisoning Enaxonlarnikiga mehmonga borishiga ruxsat berganida “ovozim bor deb ashulaga zo`r bermasin. Ovozini nomahramlrga eshittirsa rozi emasman” deydi. O`zining mustaqil fikriga ega bo`lmagan, qahri qattiq otaning yolg`iz qizi ustidan qilgan qarorlari bir qizning fojiasiga sabab bo`ladi. O`sha davr ko`zi bilan qaraydigan bo`lsak, butun bir jamiyat shunday bo`lgan, o`qimaganlik, omilik oqibatida qanchadan-qancha ayol qizlarning taqdiri ayanchli kechgan.

Asarda Zebi – go`zallik va noziklik ramzi

Zebi obrazi o`zida nafaqat tashqi go`zallikni, balki ichki dunyoning nozik va ta`sirchanligini ham mujassam etadi. U tabiatan pokiza, mehribon va orif qiz bo`lib, yuragida ezgulik, muhabbat va baxtga intilish bor. Ammo uning go`zalligi va nozikligi unga hayotda og`ir sinovlar olib keladi. U jamiyatdagi johil kishilar tomonidan ezilib, eski tuzumning qurboni bo`ladi.

Cho`lpon Zebi timsoli orqali o`zbek ayollarining an`anaviy jamiyatda qanday ahvolda bo`lganini ko`rsatadi. Ularning hayoti ko`pincha o`z istaklariga bog`liq bo`lmay, ota-onalar yoki jamiyatning talablariga mos ravishda shakllangan. Zebi esa bu an`analarga qarshi chiqa olmaydi, chunki uning hayoti qattiq qoidalarga bog`liq edi.

Zebining taqdiri og`ir va fojeaviydir. Uning hayoti o`zining orzulari va muhabbatiga emas, balki jamiyatning zo`ravon va qattiq tartiblariga bog`liq edi. Zebi o`z baxti uchun kurashmoqchi bo`lsa ham, unga atrof-muhit yo`l qo`ymaydi. Uning sevgan insoni bilan birga bo`lish istagi jamiyat tomonidan rad etiladi, natijada u taqdirning achchiq sinovlariga duch keladi.

Bu obraz orqali Cholpon ayollar huquqsizligining, ularning jamiyatdagi ahvolining achchiq manzarasini chizadi. Zebi o`z hayotini o`zi boshqara olmaydi, u faqat jamiyatning buyruqlari asosida yashashga majbur bo`ladi. Bu esa o`zbek ayollarining haqiqatdagi hayotini aks ettiruvchi fojiali manzara bo`lib ko`rinadi.

Zebi timsoli orqali jamiyat muammolarining ochib berilishi

Zebi obrazi orqali Cholpon nafaqat bir qizning taqdirini, balki butun jamiyatdagi eski va yangi kuchlar o`rtasidagi kurashni ko`rsatadi. Zebi o`zining pokligi va go`zalligi bilan ezgulikni ifodalasa-da, jamiyatning johilligi va adolatsizligi unga og`ir sinovlarni olib keladi.



Bu yerda kecha va kunduz tushunchasi ham o'z aksini topadi. Kecha – bu eski tuzum, zulm va johillik bo'lsa, kunduz – yangi hayot, ilm va ma'rifat timsolidir. Zebi kechaning zulmatida qolib ketgan, u yangi hayotga o'ta olmaydi. Uning orzulari va muhabbati qurbon bo'lishi ham aynan shu kechaning hukmronligi bilan bog'liqdir.

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi murakkab va ko'p qirrali ayol obrazi bo'lib, o'z eri Saltini yaxshi ko'rsa-da, uning qattiq va sovuq xarakteridan norozi, lekin o'ziga xos uslubi bilan oiladagi og'ir vaziyatda barchani birlashtirishga harakat qiluvchi, ba'zan fitnalarga ham qo'shiladigan, hayotiy va sergak ayol obrazidir.

Xarakteri: U o'z erini sevadi, lekin uning qovoq-qoshini ko'tarib yurishidan aziyat chekadi. U buni bartaraf etishga intiladi.

Har doim "qora bulutlar"ga o'xshagan eri Salti oldida, uni "ochish" uchun harakat qiladi.

"Fitnalikdan, ya'ni makr va firibdan xoli emas" deyiladi, bu uning ichki kurashlari va hayotiy vaziyatga moslashish usulini ko'rsatadi.

Oila a'zolarini bir-biriga yaqinlashtirishda muhim rol o'ynaydi, garchi ba'zi hollarda o'ziga xos usullardan foydalansa ham. U oiladagi ijobiy o'zgarishlarning "onasi" vazifasini bajaradi.

Qisqacha aytganda, Qurvonbibi — bu an'anaviy va modernizatsiya o'rtasida qolgan, oddiy hayotda o'z o'rnini topishga, oilani saqlab qolishga harakat qilayotgan, kuchli va rang-barang ayol obrazidir.

Xulosa qilib aytganda, romanda xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar ifodalangan. Jafokash xalqning, xususan, xitin-qizlarning fojiiyali hayoti tasvirlangan. Qahramonlar taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayoti yaqqol ko'rsatib berilgan. Asarning maqsadi, o'zbek jamiyatidagi milliy g'oyalar, milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik, mustaqillik istagi, inqilobiy kurashlar va O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotini ochib berishdir. Roman, Cho'lponning o'zbek jamiyati uchun yaratgan falsafiy va ijtimoiy-siyosiy asari hisoblanadi. Cholpon «Kecha va Kunduz» romanida Zebi obrazi orqali ayollar hayotining og'irligini, eski jamiyatning zulmini ko'rsatadi. U go'zallik, poklik va mehr-oqibat timsoli bo'lsa-da, taqdir uni ezadi. Zebi timsoli orqali yozuvchi nafaqat bir qizning fojeasini, balki butun bir davrning murakkabligini ifodalagan.

Asarning tugal xulosasi – millat qis-mati.

Asarning eng asosiy g'oyasi – millat faqat ilm va ma'rifat orqali har qanday qiyinchiliklardan qutulishi mumkin. Bu asar bugungi kunda ham dolzarb, agar jamiyat rivojlanishini istasa, ayollarni ilmiy qilish, ularga erkinlik berish va erkaklarni faqat mansab uchun emas, xalq uchun



ishlaydigan qilib tarbiyalash kerak. “Kecha va Kunduz” romani o‘zbek jamiyatining ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini yoritishda, yosh avlodning o‘zligini anglashdagi kurashini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Bu asar nafaqat badiiy, balki tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, o‘z davrining ruhiyatini, o‘zgarishlarini va kelajakni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “ Cho`lpon asarlarining amerikalik tarjimoni: “Kecha va Kunduz”ning “Kunduz”I yozilmagan”. Daryo.uz
2. “Abdulhamid Cho`lponning “kecha va kunduz”romanidagi ijtimoiy-insoniy munosabatlar lisoniy tahlil obekti sifatida” samxorfil.2023-yil asl nusxasidan.
3. Rahima Shirinova “Kecha va kunduz” romani fransuz tilida ziyo.uz
4. Cho`lponning “kecha va kunduz” romanidan.
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://arxiv.uz>



QIRG'IZISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI: MUAMMO VA ISTIQBOL

Yuldashev Ravshanjon Bahodirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif Qirg'iziston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari, uning institutsional tuzilishi hamda zamonaviy modernizatsiya jarayonlarini tahlil qiladi. Maqolada Qirg'iziston oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, jumladan, ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmfan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mamlakat oliy ta'lim tizimida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ilmiy tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, Qirg'iziston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish hamda xalqaro akademik hamkorlikni kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq ekani asoslab beriladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va global ta'lim makoni bilan integratsiyani chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Qirg'iziston, oliy ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, kredit-modul tizimi, akademik mobillik, universitet avtonomiyasi, ta'lim sifati, xalqaro integratsiya, ta'lim modernizatsiyasi, raqamli ta'lim.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida oliy ta'lim tizimi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik sohalardan biri sifatida qaralmoqda. Oliy ta'lim nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki ilmiy salohiyatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilgan Philip G. Altbach oliy ta'limni global bilim iqtisodiyotining asosiy instituti sifatida baholaydi hamda uning xalqaro integratsiyasi davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanini ta'kidlaydi¹. Shu sababli ko'plab davlatlar o'z milliy oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda uni xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

¹ Philip G. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. (2009). Trends in global higher education: Tracking an academic revolution. Paris: UNESCO. –P.45.



Qirg'iziston oliy ta'lim tizimining rivojlanishida xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyalashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mamlakat oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish, uch bosqichli ta'lim modeli (bakalavriat, magistratura va doktorantura)ni shakllantirish hamda akademik mobillikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda². Ta'lim tizimining modernizatsiyasi jarayonini tahlil qilgan Jamil Salmi universitetlarning xalqaro standartlarga moslashuvi hamda ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish global raqobatbardosh universitetlarni shakllantirishning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi³. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, Qirg'iziston oliy ta'lim tizimida ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular ta'lim sifati, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ilmiy tadqiqot faoliyatining samaradorligi hamda oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarda namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim tizimining samarali rivojlanishi uchun ta'lim siyosati, ilmiy salohiyat va boshqaruv tizimlari o'rtasidagi uyg'unlik muhim ekanini Mariya Yudkevich ham alohida ta'kidlaydi⁴. Mazkur muammolarni hal etish va oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun ta'lim siyosatini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish hamda ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qirg'iziston oliy ta'lim tizimining rivojlanishi va uning institutsional o'zgarishlari postsovet davlatlari ta'lim tizimini o'rgangan Mariya Yudkevich hamda Philip G. Altbach kabi olimlarning tadqiqotlarida ham ko'rib chiqilgan⁵. Ushbu ishlarda postsovet makonida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, universitetlar boshqaruvi va ta'lim siyosati transformatsiyasi tahlil qilingan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan analitik hisobotlar ham Qirg'iziston oliy ta'lim tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Xususan, World Bank⁶ hamda Asian Development Bank⁷ tomonidan tayyorlangan hisobotlarda Qirg'iziston oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari, moliyalashtirish

² Eriksson, S. (2022). Domestication of travelling reforms in higher education of Kyrgyzstan. –P.27.

³ Jamil Salmi, J. (2009). The challenge of establishing world-class universities. Washington, DC: World Bank. –P.81.

<https://documents.worldbank.org>

⁴ Mariya Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. (2015). Young faculty in the twenty-first century: International perspectives. Albany: SUNY Press. –P.87.

⁵ Jane Knight, J. (2024). Internationalization remodeled: Definition, approaches and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31.

⁶ World Bank. (2018). Higher Education Modernization Project in the Kyrgyz Republic. Washington, DC: World Bank. –p.11.

⁷ Asian Development Bank. (2012). Higher education across Asia: An overview of issues and strategies. Manila: Asian Development Bank. <https://www.adb.org/publications/higher-education-across-asia>



tizimi va ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Ushbu hisobotlarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, universitetlar boshqaruvini takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham Qirg'iziston oliy ta'lim tizimining rivojlanish muammolari va istiqbollari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim tizimining institutsional tuzilishi, universitetlar boshqaruvi, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyalashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda esa ta'lim tizimining moliyalashtirilishi, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ta'lim sifati bilan bog'liq muammolar alohida ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqotda Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari, mavjud muammolar hamda istiqbolli yo'nalishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadida siyosatshunoslik, ta'lim siyosati va xalqaro ta'lim tadqiqotlariga xos bo'lgan bir qator nazariy hamda empirik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirilib, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida kompleks o'rganishga yo'naltirildi.

Avvalo, tizimli tahlil usuli yordamida Qirg'iziston oliy ta'lim tizimi murakkab institutsional tizim sifatida o'rganildi. Mazkur yondashuv orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyati, ta'lim boshqaruvi, normativ-huquqiy asoslar hamda ta'lim siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kontent tahlil usuli qo'llanilib, Qirg'iziston Respublikasi oliy ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat strategiyalari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu metod orqali ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlari, ta'lim tizimidagi muammolar hamda rivojlanish istiqbollari aniqlab olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimi mustaqillikdan keyingi davrda sezilarli institutsional o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Sovet davrida mamlakat oliy ta'lim tizimi markazlashgan boshqaruvga asoslangan bo'lib, o'quv dasturlari va ta'lim siyosati yagona davlat tizimi orqali tartibga solingan. Mustaqillikdan so'ng esa oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim muassasalari faoliyatini liberallashtirish hamda xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvni ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi⁸.

⁸ DeYoung, A. J. (2011). Lost in Transition: Redefining Students and Universities in the Contemporary Kyrgyz Republic. Charlotte: Information Age Publishing. –P.9.



1990-yillardan boshlab Qirg'izistonda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yurita boshladi. Bu jarayon ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga olib keldi. Natijada mamlakatda oliy ta'lim muassasalari soni ortdi, biroq ta'lim sifati va ta'lim jarayonining samaradorligi bilan bog'liq muammolar ham yuzaga keldi⁹. Shuning uchun keyingi bosqichlarda ta'lim tizimini tartibga solish, ta'lim standartlarini takomillashtirish va ta'lim sifatini nazorat qilish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

2000-yillardan boshlab Qirg'iziston oliy ta'lim tizimi xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyalashuv jarayonini faol amalga oshira boshladi¹⁰. Xususan, kredit-modul tizimini joriy etish, uch bosqichli ta'lim modeli (bakalavriat, magistratura va doktorantura)ni shakllantirish hamda akademik mobillikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda Qirg'iziston oliy ta'lim tizimida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liq muammolar dolzarb hisoblanadi. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining zamonaviy talablar darajasida emasligi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi¹¹.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham ayrim hollarda zamonaviy talablar darajasida emas. Ta'lim infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasi pastligi ham ilmiy faoliyatning rivojlanishini cheklovchi omillardan biri hisoblanadi¹². Yana bir muhim muammo oliy ta'lim tizimida kadrlar salohiyati bilan bog'liqdir. Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy darajasi va ilmiy faoliyati barcha oliy ta'lim muassasalarida bir xil darajada emas¹³. Bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qirg'iziston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq. So'nggi yillarda mamlakat oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁹ Silova, I., & Niyozov, S. (2020). Globalization on the margins: Education and post-socialist transformations in Central Asia. Charlotte: Information Age Publishing. –P.61.

¹⁰ Heyneman, S. P. (2010). A comment on the changes in higher education in the post-Soviet Union. *International Higher Education*, 59, 8–9.

¹¹ Momunalieva, A. (2020). The quality of higher education in the Kyrgyz Republic from the students' perspective. *International Journal of Educational Research*. –P.77.

¹² Ismailova, R., et al. (2024). A comparative analysis of service quality and student perceptions in Kyrgyzstan's higher education institutions. –P.50.

¹³ Shadymanova, J., & Amsler, S. (2018). Institutional strategies of higher education reform in post-Soviet Kyrgyzstan. In *25 Years of Transformations of Higher Education Systems in Post-Soviet Countries*. Palgrave Macmillan. –P.4.



Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham muhim istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi¹⁴. Bu jarayon ta'lim va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Ta'lim sifatini oshirish tizimini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro akkreditatsiya tizimlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish. Universitetlarda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy grantlar va innovatsion loyihalar sonini oshirish orqali ilmiy salohiyatni mustahkamlash lozim.

Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish. Akademik kadrlarning xalqaro tajribalarini kengaytirish, ularni xorijiy universitetlarda stajirovkadan o'tkazish hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalarini rivojlantirish, elektron ta'lim resurslarini kengaytirish hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi¹⁵.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish hamda akademik mobillikni kengaytirish muhim hisoblanadi¹⁶. Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ta'lim siyosatini modernizatsiya qilish, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakat oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Umuman olganda, Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimi mustaqillikdan keyingi davrda muhim institutsional o'zgarishlar va modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirdi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida Qirg'iziston oliy ta'lim tizimida mavjud ayrim muammolar ham aniqlanib, ular ta'lim sifati, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi hamda akademik kadrlar salohiyati bilan bog'liq masalalarda namoyon bo'lishi qayd etildi. Mazkur muammolar oliy ta'lim tizimining samarali rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida baholanadi.

Shuningdek, Qirg'iziston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, universitetlarning akademik mustaqilligini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan

¹⁴ Junru, C. (2026). Internationalization of higher education in Kyrgyzstan and the TuCAHEA project. –P.23.

¹⁵ Anderson, K., & Heyneman, S. P. (2005). Education and social policy in Central Asia. International Journal of Educational Development, 25(3), 273–288.

¹⁶ DeYoung, A. J. (2011). Lost in transition: Redefining students and universities in the contemporary Kyrgyz Republic. Charlotte: Information Age Publishing.



chambarchas bog'liq ekani aniqlandi. Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda innovatsion ta'lim usullarini keng qo'llash oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Qirg'iziston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida ta'lim siyosatini takomillashtirish, ilm-fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish hamda xalqaro ta'lim makoni bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlarda izchil amalga oshiriladigan islohotlar mamlakat oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga hamda uning global ta'lim tizimidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Philip G. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. (2009). Trends in global higher education: Tracking an academic revolution. Paris: UNESCO. –P.45.
2. Eriksson, S. (2022). Domestication of travelling reforms in higher education of Kyrgyzstan. –P.27.
3. Jamil Salmi, J. (2009). The challenge of establishing world-class universities. Washington, DC: World Bank. –P.81. <https://documents.worldbank.org>
4. Mariya Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. (2015). Young faculty in the twenty-first century: International perspectives. Albany: SUNY Press. –P.87.
5. Jane Knight, J. (2024). Internationalization remodeled: Definition, approaches and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31.
6. World Bank. (2018). Higher Education Modernization Project in the Kyrgyz Republic. Washington, DC: World Bank. –p.11.
7. Asian Development Bank. (2012). Higher education across Asia: An overview of issues and strategies. Manila: Asian Development Bank. <https://www.adb.org/publications/higher-education-across-asia>
8. DeYoung, A. J. (2011). Lost in Transition: Redefining Students and Universities in the Contemporary Kyrgyz Republic. Charlotte: Information Age Publishing. –P.9.
9. Silova, I., & Niyozov, S. (2020). Globalization on the margins: Education and post-socialist transformations in Central Asia. Charlotte: Information Age Publishing. –P.61.
10. Heyneman, S. P. (2010). A comment on the changes in higher education in the post-Soviet Union. International Higher Education, 59, 8–9.
11. Momunalieva, A. (2020). The quality of higher education in the Kyrgyz Republic from the students' perspective. International Journal of Educational Research. –P.77.
12. Ismailova, R., et al. (2024). A comparative analysis of service quality and student perceptions in Kyrgyzstan's higher education institutions. –P.50.



13. Shadymanova, J., & Amsler, S. (2018). Institutional strategies of higher education reform in post-Soviet Kyrgyzstan. In *25 Years of Transformations of Higher Education Systems in Post-Soviet Countries*. Palgrave Macmillan. –P.4.
14. Junru, C. (2026). Internationalization of higher education in Kyrgyzstan and the TuCAHEA project. –P.23.
15. Anderson, K., & Heyneman, S. P. (2005). Education and social policy in Central Asia. *International Journal of Educational Development*, 25(3), 273–288.
16. DeYoung, A. J. (2011). *Lost in transition: Redefining students and universities in the contemporary Kyrgyz Republic*. Charlotte: Information Age Publishing.



B1 DARAJADAGI O'QUVCHILARDA TIL KOMPETENSIYASI VA KOGNITIV- AFFEKTIV PROFIL: LINGVISTIK HAMDA PSIXOLOGIK KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Bobomurodova Farangiz Otamurod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis iniversiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) **Kattayeva Feruza Shokirovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada B1 (o'rta bosqich) darajasidagi o'quvchilarning tilga oid imkoniyatlari va o'rganish jarayonini belgilovchi psixologik omillar integrativ yondashuvda tahlil qilinadi. Tadqiqot B1 bosqichini "elementar avtomatizm"dan "mustaqil muloqot"ga o'tish nuqtasi sifatida ko'rib, leksik-sintaktik repertuar kengayishi, xatolarning tabiatidagi o'zgarish (grammatikadan diskursga), kommunikativ strategiyalar (parafraz, to'ldiruvchi so'zlar, kompensatsiya) hamda o'z-o'zini nazorat qilish (monitoring) mexanizmlarini ajratib ko'rsatadi. Psixologik qismda motivatsiya, xavotir (language anxiety), o'ziga ishonch (self-efficacy), ishchi xotira, diqqatni boshqarish va metakognitiv rejalashtirishning B1 natijasiga ta'siri izohlanadi. Natijalar B1 o'quvchilarida til xatolarini "kamaytirish"dan ko'ra "muloqotni ushlab turish" ko'nikmalarini kuchaytirish, topshiriqlarni differensiallashtirish va mezonli baholashni joriy etish samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: B1 daraja, intertil, kommunikativ strategiya, fluency–accuracy, metakognitsiya, til xavotiri, ishchi xotira, o'zini baholash, motivatsiya, o'rta bosqich o'rganuvchi.

Kirish. B1 daraja ko'pincha "o'qib tushunadi, oddiy gaplashadi" degan umumiy ta'rif bilan cheklanadi, lekin amaliyotda bu bosqich ancha murakkab: o'quvchi endi faqat strukturalarni takrorlamaydi, balki niyatini ifodalash, fikrni bog'lash, mavzuni davom ettirish, suhbatda navbatni ushlab, noaniq joylarni aylanib o'tish kabi yuqori darajali kommunikativ vazifalarni bajara boshlaydi. Shu sababli B1 bosqichdagi o'quvchini faqat grammatik jadval orqali baholash noto'g'ri: uning real nutqi "tizimli xato + strategik kompensatsiya + diskurs qurilishi" aralashmasidan iborat bo'ladi. Bu bosqichda o'qituvchi uchun asosiy masala shunday: til tizimini chuqurlashtirish (accuracy) bilan muloqot tezligi va oqimdorligini (fluency) bir vaqtda boshqarish, ya'ni "ikki frontda" ishlash.

B1 o'quvchilarning psixologik profili ham o'ziga xos. Ular A2dan farqli ravishda o'z xatosini ko'proq sezadi, bu esa ikki yo'nalishda ta'sir qiladi: bir tomondan, o'z-o'zini tekshirish kuchayadi (monitoring), ikkinchi tomondan, xavotir ham ortishi mumkin (gapirayotganda



“to‘g‘ri ayta olamanmi?”). Shuningdek, B1 bosqichida motivatsiya sifati o‘zgaradi: “qiziqish uchun” o‘rganishdan “natija, sertifikat, imtihon, ish” kabi instrumental motivlar kuchayadi. Demak, lingvistik ko‘rsatkichlarni psixologik omillardan ajratib bo‘lmaydi: bir xil bilimga ega ikki o‘quvchining chiqishi (performance) turlicha bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi B1 darajadagi o‘quvchilarning lingvistik xususiyatlari (leksika, grammatika, diskurs, talaffuz, pragmatika) hamda psixologik omillar (motivatsiya, xavotir, o‘ziga ishonch, kognitiv resurslar) o‘rtasidagi bog‘lanishni tizimli ko‘rsatishdir. Tadqiqot savollari: B1 bosqichning tipik til xususiyatlari nimalardan iborat? Qaysi psixologik ko‘rsatkichlar nutq oqimdorligi va aniqligiga kuchliroq ta‘sir qiladi? Metodika nuqtayi nazaridan qanday didaktik qarorlar B1 o‘quvchi profiliga mos keladi?

Metodologiya. Tadqiqot konseptual-analitik dizaynda tuzildi va uchta manba turiga tayandi. Birinchidan, B1 daraja descriptorlari va kommunikativ vazifalar doirasiga mos “kompetensiya xaritasi” tuzildi (o‘qish, tinglab tushunish, yozish, gapirish bo‘yicha). Ikkinchidan, B1 o‘quvchilarda uchraydigan tipik xatolar va strategiyalar “kuzatuv protokoli” asosida guruhlandi: grammatik xato (shakl), leksik tanlov (ma‘no), kollokatsiya, diskurs bog‘lovchilari, pragmatik moslik, talaffuz. Uchinchi komponent sifatida psixologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ta‘lim psixologiyasida keng qo‘llanadigan konstruktlar (xavotir, self-efficacy, ishchi xotira, metakognitiv rejalash) asosida “ta‘sir mexanizmlari” modeli ishlab chiqildi.

Tahlil mantiqi quyidagicha qurildi: (1) B1dagi til xususiyati aniq ta‘riflanadi; (2) u xususiyat qaysi kommunikativ vazifada ko‘rinishi ko‘rsatiladi; (3) uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi psixologik omil izohlanadi; (4) didaktik tavsiya shakllantiriladi (topshiriq turi, scaffolding, baholash mezon).

Natijalar. B1 o‘quvchining lingvistik portreti bir nechta barqaror belgilar bilan tavsiflanadi.

Birinchi natija: leksik repertuar kengayadi, biroq “chuqurlik” (nuance va kollokatsiya) hali beqaror. B1 o‘quvchi odatda kundalik mavzular (oilalar, o‘qish, ish, sayohat, sog‘liq, texnologiya) bo‘yicha yetarli so‘z topa oladi, lekin sinonimlarni kontekstga mos ajratish, barqaror birikmalarni tabiiy qo‘llash, so‘z yasashini to‘g‘ri boshqarish (prefix/suffix) muammoli bo‘lib qoladi. Shuning uchun B1da xatolar “so‘z yetishmasligi”dan ko‘ra “noaniq tanlov” ko‘rinishiga o‘tadi.

Ikkinchi natija: grammatika “qoidani bilish” darajasidan “tez qo‘llash” darajasiga o‘tayotgani sababli aniqlik-fluency konflikti kuchayadi. B1da o‘quvchi Present Perfect, Past Simple farqi, modallar, nisbiy olmoshlar, shart mayllari, passivning sodda ko‘rinishlarini bilishi mumkin, ammo real nutqda ularni bir vaqtda ushlab turish qiyin: gapirayotganda tezlik oshsa,



xato ko'payadi; "to'g'ri" aytilishga urinsa, pauza va uzilishlar ortadi. Bu konflikt B1ning eng tipik "bosqich belgilari"dan biridir.

Uchinchi natija: diskurs va bog'lanish vositalari paydo bo'ladi, lekin ko'pincha stereotip va takroriy. B1 o'quvchi fikrni ketma-ket aytilish uchun linking words ishlatib boshlaydi (because, but, so, however, first/then/finally), ammo ularning semantik nozikligi (contrast vs concession, cause vs result) doim aniq ajratilmaydi. Natijada matn "bog'langan", lekin " mantiqan silliq" bo'lmasligi mumkin.

To'rtinchi natija: talaffuz va prosodiya B1da "tushunarli" darajaga yaqinlashadi, biroq urg'u, ritm, intonatsiya cheklovi nutqning tabiiyligini pasaytiradi. O'quvchi ko'pincha segmental tovushlarni nisbatan to'g'ri aytiladi, ammo so'z urg'usi va gap ohangi ona tilidan ko'chishi sababli (transfer) xabar ohangi noto'g'ri ko'rinishi, savol-javob intonatsiyasi aralashishi mumkin. Bu esa pragmatik talqinga ham ta'sir qiladi: o'quvchi "odobsiz" yoki "keskin" tuyulib qolishi ehtimoli mavjud.

Beshinchi natija: kompensatsion strategiyalar faol ishlay boshlaydi. B1 o'quvchi bilmagan so'zni aylanib aytilish (parafraz), misol keltirish, ishora va sinonim bilan almashtirish, "gapni cho'zish" uchun filler ishlatish (well, you know, I mean) kabi strategiyalarni o'zlashtiradi. Bu strategiyalar muloqotning uzilib qolmasligini ta'minlaydi, ya'ni B1ning kuchli tomoni aynan "kommunikativ tirik qolish" emas, "kommunikativ davomiylik"dir.

Psixologik xususiyatlar bo'yicha ham aniq naqshlar kuzatildi.

Birinchi psixologik natija: til xavotiri B1da eng sezilarli cho'qqiga chiqishi mumkin, chunki o'quvchi endi o'z kamchiligini ko'radi, lekin uni tez tuzatish resursi yetarli emas. Bu hol gapirish va tinglab tushunishda "blok" keltirishi ehtimoli yuqori.

Ikkinchi psixologik natija: self-efficacy B1da kuchli prognozlovchi. O'ziga ishonchi yuqori o'quvchi xato qilsayam gapirishni davom ettiradi, past ishonchli o'quvchi esa kam gapiradi, natijada amaliy mashq kamayadi va rivojlanish sekinlashadi.

Uchinchi psixologik natija: ishchi xotira va diqqatni boshqarish grammatik aniqlikka bevosita ta'sir qiladi. Murakkab gap tuzishda (relative clause, conditional) o'quvchi bir vaqtning o'zida mazmun, shakl, so'z tartibi, talaffuzni ushlab turishi kerak; ishchi xotira cheklanganda, u "shakl"ni qurbon qiladi.

To'rtinchi psixologik natija: metakognitiv rejalashtirish (oldindan reja, keyin tekshirish) B1da tez o'sishni beradi. Rejalashni o'rgangan o'quvchi yozishda ham, gapirishda ham "skeleton" qurib, keyin detal qo'shadi; rejasiz o'quvchi esa gap o'rtasida yo'nalishni yo'qotadi.

Muhokama. Natijalar B1 bosqichida metodik xatolar qaerdan kelishini ham ko'rsatadi. Eng keng tarqalgan xato — B1ni "grammatika tugaydi, endi faqat gapirish" bosqichi deb ko'rish yoki aksincha "grammatika ko'payadi, muloqot keyinroq" deb ortga surish. Ikkalasi ham



ishlamaydi, chunki B1ning mohiyati integratsiyada: grammatikani kommunikativ vazifada avtomatlashtirish va strategiyalarni ongli boshqarish.

B1 uchun eng kichik, lekin real ishlaydigan didaktik o'zgarishlar quyidagilar: birinchidan, topshiriqlarda "time-to-think"ni dizaynga kiritish (30–60 soniya rejalash, keyin gapirish) — bu ishchi xotira yukini kamaytiradi va accuracy oshadi. Ikkinchidan, "fluency-first, accuracy-later" siklini qo'llash: avval erkin gapirtirish (tuzatmasdan), keyin 2–3 ta maqsadli xatoni tanlab mini-trening qilish. Uchinchidan, leksikani "yakka so'z" emas, kollokatsiya va chunklar bilan o'rgatish (make a decision, take part) — bu nutq tezligini oshiradi. To'rtinchidan, xavotirni kamaytirish uchun baholashda jarayon mezonlarini kiritish: faqat xato soni emas, fikrni davom ettirish, parafraz qilish, bog'lovchi ishlatish ham ballga kirishi kerak.

Shuningdek, B1 o'quvchining psixologik ehtiyojini e'tiborsiz qoldirish ham riskli: o'qituvchi "xato qilding"ni ko'p urg'ulasa, monitoring ortadi va fluency tushadi. Buning muvozanatli yechimi: xatoni "signal" sifatida qabul qilish (qaysi tizim hali avtomatlashtmaganini ko'rsatadi), shaxsga emas, performansga yo'naltirilgan fikr bildirish, hamda o'quvchining o'z-o'zini baholashini o'rgatish (checklist/rubric).

Xulosa. B1 darajadagi o'quvchilar lingvistik jihatdan o'tish bosqichida turadi: leksik qamrov kengayadi, grammatika funksional ishlatishga o'tadi, diskurs bog'lovchilari paydo bo'ladi, kompensatsion strategiyalar faollashadi, talaffuz tushunarlilikka yaqinlashadi. Psixologik tomondan esa xavotir va monitoring kuchayishi, self-efficacyning hal qiluvchi roli, ishchi xotira cheklovi hamda metakognitiv rejalashtirishning ta'siri asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Demak, B1 bilan ishlashda asosiy maqsad "xatosiz nutq" emas, balki "barqaror muloqot + bosqichma-bosqich aniqlik"dir. O'qitish dizayni rejalash vaqtini berish, chunk asosida leksika, ikki bosqichli (fluency→accuracy) tuzatish, mezonli baholash va psixologik xavfsiz muhitni ta'minlash orqali B1 o'quvchining real ehtiyojiga moslashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge: Cambridge University Press. 2001.
2. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press. 1994.
3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press. 1982.
4. Dörnyei Z. The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. 2005.
5. Horwitz E. K. Language Anxiety and Achievement. Modern Language Journal. 1986.



O'ZBEK ADABIYOTIDA OTA VA O'G'IL FOJIASI

Yusupova Diyora Oloviddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti

universitetining 3-kurs talabasi

yusupovadiyora0209@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida uchraydigan ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyalashda otaning o'rni, oilaviy muhitning ta'siri, farzand tarbiyasida otaning o'rni va manaviy ziddiyatlar mavzusidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, ota va og'il munosabati, otalik mas'uliyati, fojia, avlodlar ziddiyati, ma'naviy qadriyat, ruhiy iztirob, oilaviy munosabatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взаимоотношения отца и сына в узбекской литературе, роль отца в воспитании ребенка, влияние семейной среды, а также вопросы духовных конфликтов в процессе воспитания. Освещаются проблемы отцовской ответственности, трагизма, конфликта поколений, духовных ценностей, душевных переживаний и семейных отношений.

Ключевые слова: узбекская литература, отношения отца и сына, отцовская ответственность, трагедия, конфликт поколений, духовные ценности, душевные страдания, семейные отношения.

Annotation. This article discusses the relationship between father and son in Uzbek literature, the role of the father in child upbringing, the influence of the family environment, and the issues of spiritual conflicts in the process of raising a child. It highlights themes such as paternal responsibility, tragedy, generational conflict, spiritual values, emotional suffering, and family relationships.

Key words: Uzbek literature, father-son relationship, paternal responsibility, tragedy, generational conflict, spiritual values, emotional suffering, family relations.

O'zbek adabiyotida ota va o'g'il fojiasi – bu asarlarda ota va o'g'il o'rtasidagi ziddiyatlar, tushunmovchiliklar yoki dramalarni aks ettiruvchi motivdir. Bu fojialar ko'pincha oilaviy



rishtalar, shaxsiy qarorlar, ijtimoiy vaziyatlar va axloqiy mas'uliyat bilan bog'liq bo'ladi. Ota va o'g'il o'rtasidagi munosabat adabiyotda eng chuqur va og'riqli mavzulardan biridir. Chunki bu rishta faqat qon bilan emas, balki umid, ishonch va davomiylik bilan bog'liq. Ota o'g'lida o'zining davomchisini ko'radi, o'g'il esa otada suyanch va yo'l ko'rsatuvchini topadi. Ammo hayot yo'llari ayrilgan, tushunmovchiliklar chuqurlashgan paytda aynan shu muqaddas rishta fojiga aylanadi. Buni bir qancha asarlar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan Behbudiyning „Padarkush“¹ Pirimqul Qodirovning „Ona lochin vidosi“ asarlarida farzandning otaning qotiliga aylanib qolishini ko'rsak. Said Ahmadning „Qochoq“, Odil Yoqubovning „Muzqaymoq“, Xudoyberdi To'xtaboyevning „Mungli ko'zlar“,

Said Ahmadning „Sarob“ asarlari orqali esa farzand tarbiyasida otaning o'rni va farzandning otaga bo'lgan munosabatini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ota qotiliga aylangan farzandlar taqdiri namoyon etilgan asarlarga kelib to'xtaladigan bo'lsak: birida farzandini ilmi, odobli qilishga urinmagan, boyluk orqali hamma narsani hal qilaman deb o'ylovchi, farzand tarbiyasi uchun vaqt ajratmaydigan, doimo pulni orqasidan quvadigan ota timsoli tasvirlangan bo'lsa ikkinchi asarda esa davlat ishlariga band bo'lishiga qaramasdan farzand tarbiyasi uchun vaqt ajratgan ,butun hayotini ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan, qalbida doim mehr jo'sh urgan ota timsoli tasvirlangan „Padarkush“ asaridagi Toshmurod ilmsizligi tufayli yon atrofidagi kimsalarning yaxshi yomon so'zlarini farqlay olmagan bo'lsa, „Ona lochin vidosi“dagi Abdulatif esa siyosiy kurashlar girdobiga qolib² ,taxtni egallash maqsadida (taxtga bo'lgan intilish otasiga bo'lgan mehridan ustun kelib) o'z otasining qotiliga aylandi. Ota qalbidagi mehr o'g'il qalbidagi nafsdan ustun kela olmagan. Bu asar ilm va ma'naviyat yo'q joyda zulmning o'sishiga va nafs balosidan ehtiyot bo'lishga va qalblardan mehr yo'qolmasligiga davat qiluvchi asarlar sirasiga kiradi.

Said Ahmadning „Qochoq“, Odil Yoqubovning „Muzqaymoq“, Xudoyberdi To'xtaboyevning „Mungli ko'zlar“, Said Ahmadning „Sarob“ asarlari³ orqali esa farzand tarbiyasida otaning o'rni va farzandning otaga bo'lgan munosabatini namoyish etuvchi asarlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Bu asarlarda farzand ota mehrini kech anglab, pushaymon bo'lgan bolalar taqdiri namoyon bo'ladi. Asarning nomlanishi ham o'quvchini chuqur o'ylashga majbur qiladi. Misol uchun „Muzqaymoq“⁴ bolalik, mehr va sovuqlikni esga solsa asardagi voqealar rivoji ham xuddi shu yo'sinda davom etib boradi. „Mungli ko'zlar“da esa ichki og'riq

¹ Mahmudxo'ja Behbudiy. *Padarkush*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

² Pirimqul Qodirov. *Ona lochin vidosi*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.

³ Said Ahmad. *Sarob*. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.

⁴ Odil Yoqubov. *Muzqaymoq*. – Toshkent: Yosh gvardiya.



, tushunmovchiliklar o'z ifodasini topadi „Qochoq”da bo'lsa , qochish (mas'ulyatdan qolaversa taqdirdan) qochish namoyon bo'ladi. Asarlarda tasvirlangan otalarning farzandiga bo'lgan mehrini ayta olmaganliklari, qolaversa, ularni ko'p tergameasliklari ,ayollarining doim farzandi yonini olib o'stirganligi asar oxirida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Farzand ko'pincha otaning qat'iyati va qattiqqo'lligini mehirsizlik deb qabul qiladi, uning qalbidagi mehr va muhabbatni esa kech anglaydi. Vaqt o'tib, hayot sinovlari qarshisida turganida, u otaning har bir tanbehi, har bir sukuti ortida ulkan mas'uliyat va muhabbat yotganini anglab yetadi. Ammo bu anglash ko'pincha kechikkan bo'ladi. Bu asarlarda ham qahramon asar yakunida qilgan ishidan pushaymon bo'ladi lekin bu pushaymonlikni tiliga chiqara olmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu asarlarda ham qahramonlar hayot sinovlari, ruhiy iztiroblar va ichki kurashlar orqali o'z xatolarini anglab yetadilar. Eng muhimi, o'quvchi uchun ma'naviy xulosa ochiq qoladi: ota mehrini o'z vaqtida anglash, oilaviy qadriyatlarni asrash va nafs hamda jaholatdan yiroq bo'lish insonni fojidan saqlaydi. Har bir yozuvchi asarlarida so'zlardan shu darajada foydalana olganki xulosa chiqarishni o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. O'zbek adabiyotidagi ota va o'g'il fojiasi nafaqat badiiy konflikt, balki tarbiyaviy va ma'naviy ogohlantirish vazifasini ham bajaradi. Bu asarlar orqali mualliflar jamiyatni ilm, mehr, mas'uliyat va oilaviy birlik sari chorlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Padarkush*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Pirmqul Qodirov. *Ona lochin vidosi*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
3. Said Ahmad. Sarob. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
4. Odil Yoqubov. Muzqaymoq. – Toshkent: Yosh gvardiya.



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QANDOLATCHILIK TERMINLARINING MA'NO MUNOSABATLARI: LINGVISTIK MAYDON VA QIYOSIY SEMANTIKA

Salimova Shahnoza Nurillo qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) dots Shukurova Bahora Boltayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada qandolatchilik sohasiga oid terminlarning ingliz va o'zbek tillarida qanday ma'no munosabatlari (giponimiya–giperonimiya, meronimiya, sinonimiya, antonimiya, polisemiya, metonimik bog'lanish) orqali tarmoqlanishi qiyosiy asosda yoritiladi. Tadqiqot terminlar “ro'yxati”dan ko'ra terminlar “tizimi” muhimroq ekanini ko'rsatadi: bir atama boshqa atamalar bilan qanday aloqaga kirishi uning amaliy talqinini belgilaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, inglizcha qandolatchilik leksikasida jarayon va tekstura bilan bog'liq nomlash (whip, fold, temper; creamy, flaky, chewy) juda detal, o'zbekcha tizimda esa mahsulot turi va umumiy texnologik bosqichlar ko'proq “yadro” rolida turadi; shu farq tarjima va kasbiy ta'limda “soxta moslik”lar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Muhokamada ikkala til uchun umumiy bo'lgan semantik munosabatlar modeli taklif qilinadi va minimal amaliy yechimlar (taglash, definitsiya standarti, ikki pog'onali termin) tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: qandolatchilik terminlari, ma'no munosabati, giponimiya, meronimiya, polisemiya, sinonimiya, qiyosiy semantika, terminologik maydon, tarjima, definitsiya.

Kirish. Qandolatchilik atamalari kundalik tilda ham ishlatiladi, biroq ishlab chiqarish, retseptura, sanitariya talablari va sifat nazoratida ular mutlaqo “kasbiy” mazmun kasb etadi. Aynan shu nuqtada semantik munosabatlar muammosi keskinlashadi: atama nimani bildirishi emas, u boshqa atamalar bilan qanday bog'langanligi (qaysi turkumga kirishi, nimaning qismi bo'lishi, nimalar bilan almashtirilishi, qaysi vaziyatda boshqa ma'noga o'tishi) amaliy xatolarni yoki aniqlikni belgilaydi. Masalan, ingliz tilida “icing” va “glaze” ayrim kontekstlarda yaqin ko'rinsa-da, texnologik vazifa va zichlik bo'yicha farqlanadi; o'zbek tilida esa “krem”, “glazur”, “qoplama” kabi birliklar ba'zan bir-birini “bosib ketadi” va natijada matnda aniqlik yo'qoladi. Demak, qandolatchilik terminologiyasini o'rganishda semantik tarmoqni ko'rish — asosiy didaktik talab.

Ushbu maqolaning maqsadi: ingliz va o'zbek tillarida qandolatchilik terminlari orasidagi ma'no munosabatlarini tiplashtirish, har bir munosabat turining amaliy oqibatini ko'rsatish hamda tarjima/ta'lim/standartlashuv uchun ishlaydigan konseptual model taklif etish. Tadqiqot savollari: qandolatchilik terminlari qaysi munosabatlar orqali “maydon” hosil qiladi? Qaysi munosabatlar ikki tilda mos, qaysilari tizimiy farq sababli ajraladi? Ko'pma'nolilik va sinonimiya qaysi nuqtalarda xavfli? Eng kichik me'yorlashtirish qoidasi qanday bo'lishi kerak?



Metodologiya. Tadqiqot qiyosiy-semantik va terminologik yondashuvda olib borildi. Ish uch bosqichdan tashkil topdi. Birinchi bosqichda qandolatchilik leksikasi ichidan “tizim quruvchi” terminlar tanlandi: mahsulot turlari (cake, pastry, biscuit; pishiriq, pechenye, tort), tarkibiy komponentlar (flour, sugar, butter; un, shakar, yog‘), jarayonlar (whisk, knead, bake; ko‘pirtirish, qorish, pishirish), bezash elementlari (frosting, filling; krem, nachinka), sifat–tekstura belgilari (crisp, moist; qarsildoq, nam). Ikkinchi bosqichda har bir terminning munosabatlari 6 tip bo‘yicha kodlandi: (1) tur–jins (giponimiya), (2) qism–butun (meronimiya), (3) yaqin ma’nodlilik (sinonimiya), (4) qarama-qarshilik (antonimiya), (5) ko‘p ma’nodlilik (polisemiya), (6) nomlash ko‘chishi (metonimiya/metafora). Uchinchi bosqichda qiyosiy tahlil qilindi: bir munosabat turi bir tilda kuchli, ikkinchisida esa “tarqalgan” yoki “birlashgan” holatda keladigan nuqtalar ajratildi.

Natijalar. 1) Giponimiya (tur–jins) munosabati. Qandolatchilik terminologiyasida eng asosiy ierarxiya “umumiy mahsulot”dan “aniq variant”ga o‘tadi. Inglizcha tizim ko‘pincha katta daraxt hosil qiladi: dessert → cake → sponge cake / cheesecake / fruit cake kabi. O‘zbekcha qatlamda “pishiriq”, “tort”, “shirinlik” kabi yirik tugunlar mavjud, lekin ayrim mayda turlar nomi o‘zlashma yoki regional variant orqali kelgani uchun ierarxiya ba‘zan izchil ko‘rinmaydi. Amaliy oqibat: ingliz matnini o‘zbekchaga o‘girayotganda “genus” darajasini noto‘g‘ri tanlash (masalan, cake’ni doim tort qilish) texnologik farqni yo‘qotadi. Shuning uchun giponimik moslikda uch pog‘ona tavsiya etiladi: yuqori sinf (shirinlik) → mahsulot turi (tort/pishiriq) → aniq ko‘rinish (masalan, “biskvitli tort”, “pishloqli tort”).

2. Meronimiya (qism–butun) munosabati. Bu munosabat retseptura va texnologik karta uchun tanqidiy. Ingliz tilida component leksikasi juda “bo‘laklangan”: batter, dough, filling, topping, crumb, glaze, syrup – barchasi “butun mahsulot”ning funksional qismlari sifatida nomlangan. O‘zbek tilida ham “xamir”, “krem”, “nachinka”, “qoplama”, “sirop” bor, ammo ayrim hollarda bitta so‘z bir nechta rol ni yopishi mumkin (masalan, “krem” ba‘zan filling ham, topping ham bo‘lib ketadi). Natija: meronimik aniq ajratish bo‘lmasa, ishlab chiqarish talqini buziladi. Minimal yechim: o‘zbek matnida “funksiya yorlig‘i” qo‘shish (krem – ichki qatlam uchun / ustki bezak uchun) yoki inglizcha termin bilan birga qisqa izoh keltirish.

3. Sinonimiya va variantlilik. Kasbiy sohada mutlaq sinonim deyarli bo‘lmaydi; ko‘pincha “yaqin” birliklar registr, zichlik, texnologiya yoki mahsulot turiga ko‘ra farqlanadi. Inglizchada frosting–icing, glaze–coating, biscuit–cookie kabi juftliklar aynan shunday. O‘zbekchada esa “qoplama–glazur”, “nachinka–to‘ldirma”, “pechenye–biskvit” kabi qatorlar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari bir-birini siqib chiqaradi. Amaliy xulosa: lug‘at yoki o‘quv qo‘llanmada “sinonim” deb berish o‘rniga “qo‘llanish sharti” bilan berish kerak: qaysi biri umumiy, qaysi biri maxsus; qaysi biri xalqona, qaysi biri texnologik.



4. Antonimiya (qarama-qarshi ma'no). Qandolatchilik terminologiyasida antonimiya ko'pincha sifat va jarayonlarda ishlaydi: soft–hard, moist–dry, baked–unbaked; yumshoq–qattiq, nam–quruq, pishgan–xom. Ingliz tilida texture descriptorlari juda ko'p va differensial: chewy, crispy, crunchy, flaky, gooey. O'zbek tilida ham bularning ekvivalentlari bor, lekin ko'pincha “keng” sifatlar bilan cheklanadi (qarsildoq, yumshoq, yopishqoq, qatlamli). Natija: tarjimada antonimik juftliklar to'g'ri tanlanmasa, sifat nazorati talabi noto'g'ri tushuniladi. Shuning uchun texnologik matnda umumiy sifat bilan kifoyalanmay, zarur bo'lsa qo'shimcha aniqlovchi (masalan, “qarsildoq, ammo mo'rt”) berish kerak.

5. Polisemiya (ko'p ma'nolilik). Bu eng xavfli qatlam, chunki bir so'z turli vaziyatda boshqa referentga ko'chadi. Inglizchada “cream” umumiy ma'noda sut mahsuloti ham, krem teksturali massa ham bo'lishi mumkin; “batter” ba'zan suyuq xamir, ba'zan jarayon natijasi. O'zbekchada “krem” ham shunga o'xshash: ingredient sifatida ham, bezak materiali sifatida ham ishlatiladi. Polisemiya ishlab chiqarishda chalkashlik tug'diradi, chunki retseptura “xomashyo” va “yarim tayyor”ni qat'iy farqlashi kerak. Minimal standart: har polisemik termin uchun definitsiya ikki qismlig bo'lsin: (a) soha ichidagi ma'no, (b) retseptura roli (ingredient/yarim tayyor/bezak).

6. Metonimik va metaforik bog'lanishlar. Qandolatchilikda nomlar ko'pincha shakl, rang, ijtimoiy odat yoki kelib chiqish bilan ataladi: “Napoleon”, “Brownie”, “Eclair”; o'zbek muhitida ham “asal tort”, “yong'oqli pishiriq”, “qush tili” singari obrazli nomlashlar uchraydi. Bu yerda munosabat “nom–tarkib” yoki “nom–shakl” orqali quriladi. Qiyosiy jihat: inglizcha madaniy nomlar ko'pincha o'zbekchada to'g'ridan-to'g'ri ko'chadi (o'zlashma), biroq ularning ichki motivatsiyasi yo'qoladi; o'zbekcha obrazli nomlar esa inglizchaga o'tganda literal tarjimada g'alati eshitilishi mumkin. Shuning uchun metonimik nomlar bilan ishlashda “transliteratsiya + izoh” strategiyasi ko'pincha eng xavfsiz.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qandolatchilik terminlari ma'no munosabatlari bo'yicha “ko'p qavatli tarmoq” hosil qiladi va bu tarmoq ikki tilda bir xil zichlikda emas. Ingliz tilida tekstura, jarayon va komponentlar bo'yicha mikrofarqlanish juda kuchli; o'zbek tilida esa ko'p hollarda umumiyroq atamalar markazda turadi, mayda farqlar izoh bilan beriladi yoki o'zlashmalar orqali kiradi. Bu tipologik farq uchta riskni tug'diradi.

Birinchi risk: giponimik daraja xatosi. Umumiy so'z bilan tarjima qilish texnologik farqni o'chiradi, juda tor so'z bilan tarjima qilish esa noto'g'ri aniqlik beradi. Yechim: uch pog'onali ierarxiya va definitsiyaga tayangan holda moslik tanlash.

Ikkinchi risk: meronimik funksiyani yo'qotish. “Krem”ni hamma joyda “cream” deb qo'yish yoki aksincha, “filling”ni “krem” qilish mahsulot konstruksiyasini noto'g'ri talqin qildiradi. Yechim: komponent rolini (ichki qatlam/ustki qatlam/qoplama) termin bilan birga majburiy belgilash.



Uchinchi risk: polisemiyanı “sinonim” bilan adashtirish. Bir soʻzning ikki maʼnosi borligini koʻrmas, uni boshqa soʻz bilan almashtirish retseptni buzadi. Yechim: polisemik birliklar uchun “kontekst belgilari” roʻyxati tuzish (masalan, ingredient birliklari bilan kelsa — xomashyo, bezash feʼllari bilan kelsa — dekor materialı).

Didaktik jihatdan eng tejamkor mexanizm shunday: talabalarga terminlarnı yodlatishdan oldin “munosabat xaritasi”ni oʻrgatish. Yaʼni har bir yangi atama kamida uchta bogʻlanish bilan kiritsin: uning giperonimi, uning tipik qismi yoki komponenti, va unga yaqin, lekin aynan bir xil boʻlmagan qoʻshnisi (near-synonym). Shunda oʻquvchi terminni nafaqat biladi, balki tizim ichida joylashtira oladi.

Xulosa. Qandolatchilik terminlarining maʼno munosabatlari ingliz va oʻzbek tillarida umumiy tiplar boʻyicha mos tushadi (tur–jins, qism–butun, yaqinlik, qarama-qarshilik, koʻp maʼnolilik, koʻchma nomlash), biroq munosabatlarning “zichligi” va “nozikliги” tilda turlicha. Ingliz tizimi koʻproq mikrofarqlangan (komponent va tekstura), oʻzbek tizimi esa koʻpincha yirik tugunli va izohga tayanadi; oʻzlashmalar bu farqni qisman yopadi, lekin variantlilikni kuchaytiradi. Amaliy tavsiyalar: giponimik pogʻonani aniq belgilash, meronimik rolni yorliqlash, polisemik terminlar uchun ikki qismlı defınitsiya berish, yaqin birliklarnı “sinonim” emas, “qoʻllanish sohasi” bilan ajratish. Shu yondashuv tarjima aniqligini oshiradi, kasbiy taʼlimda tushunmovchilikni kamaytiradi va terminologik resurs yaratishda tizimlilikni taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lyons J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. 1977.
2. Cruse D. A. Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. 1986.
3. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Bonn: Romanistischer Verlag. 1979.
4. Jackson H., Zé Amvela E. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. London: Continuum. 2007.
5. Oʻzbek tili leksikologiyasi va terminologiyasi boʻyicha darslik hamda oʻquv qoʻllanmalar majmuasi. Toshkent. 2000–2024.
6. Bahramovna, Y. S. (2022). Etymological And Semantic Analysis Of Clothing Names In Different Systemic Languages. Web Of Scientist: International Scientific Research, 83-88.
7. Bahromovna, Y. S. (2021). Thematic Division of Clothing Names in English and Uzbek. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 1(2), 61-62.



МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗНЫХ ГИСТОТИПОВ РАКА ТЕЛА МАТКИ

Курязова Гуласал Комулжоновна

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сина.
Бухара, Узбекистан.

Аннотация. Проведенное клинико-морфологическое исследование показало, что наиболее частым гистотипом рака эндометрия у женщин всех возрастных групп является эндометриоидная аденокарцинома. Серозно-папиллярная аденокарцинома отмечалась как в репродуктивном, так и в перименопаузальном периодах, причем достоверно чаще у женщин, страдавших бесплодием. При светлоклеточной аденокарциноме репродуктивная функция сохранялась, фоновым состоянием эндометрия у молодых женщин был гиперпластичный эндометрий и атипическая железистая гиперплазия, у больных старше 45 лет – атрофичный и смешанный эндометрий.

Ключевые слова: рак эндометрия, гистологические типы, репродуктивные, перименопаузальные и менопаузальные больные.

Актуальность. В последние годы рак тела матки (РТМ) является одним из наиболее частых типов злокачественных новообразований женского репродуктивного тракта [1,3,5,7,9,11,13]. В нашей стране за последние 30 лет заболеваемость раком эндометрия (РЭ) возросла в 3 раза и занимает второе место среди онкологических болезней женщин и первое место среди опухолей женской половой сферы [1,2]. В большинстве случаев заболевание диагностируется на стадии локализованного процесса, а именно, в I-II стадии [14,15]. Распределение по возрасту заболевших РЭ женщин таково: 75% находятся в менопаузе, 20% – в пременопаузе и 5% – моложе 40 лет [2,4,6,8,10,12]. Заболеваемость в возрастном интервале от 40-44 лет до 50-54 лет увеличивается примерно в 4 раза, достигая постепенно пика к периоду 60-64 года, после чего заметно снижается. Несмотря на то, что РЭ чаще встречается у женщин, пребывающих в состоянии пре- и постменопаузы, за последние 10 лет заболеваемость в возрастной группе до 29 лет увеличилась на 47%. Указанная тенденция является крайне неблагоприятной, поскольку затрагивает социально-активную группу пациенток репродуктивного возраста. С этих позиций изучение морфологических особенностей РТМ в возрастном аспекте представляет несомненный интерес.



Цель исследования. Сравнительное изучение морфологических особенностей эндометриоидной аденокарциномы, плоскоклеточного рака эндометрия и эндометриоидной аденокарциномы с плоскоклеточной метаплазией.

Материал и методы исследования. Материалом для настоящего исследования послужили клинические данные о 121 больных РТМ, находившихся на лечении в Харезмском научно-исследовательском онкологическом диспансере за период с 2021 по 2025 гг. Для ретроспективного анализа изучены амбулаторные и стационарные карты больных, журналы регистрации оперативных вмешательств и гистологических исследований. Средний возраст больных составил 59,3 лет.

Результаты и обсуждение. Все пациентки с учетом возрастной характеристики были разделены на 3 группы: I – основная группа представлена 87 больными РЭ до 45 лет (средний возраст – 39,6 лет); среди них больных активного репродуктивного возраста до 35 лет было 56 человек (средний возраст – 30,7 лет); 31 больная относилась к группе позднего (до 45 лет) репродуктивного периода (средний возраст – 44,1 года); II – контрольная группа состояла из 44 больных старше 55 лет (средний возраст – 66,1 лет); в III группе сравнения были пациентки до 55 лет (81 человек), средний возраст которых составил 51,5 лет. Согласно данным литературы, у больных репродуктивного возраста в 62-63,7% встречаются высокодифференцированные формы аденокарциномы, и более, чем в 2/3 случаев наблюдается I стадия заболевания с глубиной инвазии до 0,5 см. И, тем не менее, имеются данные об агрессивных, смешанного типа, карциномах эндометрия у молодых женщин. По нашим данным, более половины всех пациенток характеризовались минимальной (до 1/2) инвазией миометрия или отсутствием таковой, причем IA стадия РЭ была доминирующей во всех возрастных группах. В то же время, наибольший процент больных с данной стадией РТМ отмечен среди лиц репродуктивного возраста: 226 (78,8%). С увеличением возраста прослеживалась тенденция к снижению доли IA стадии и возрастанию удельного веса более поздних стадий. Данная закономерность соотносится с более благоприятным прогнозом и лучшими результатами лечения молодых пациенток, что, несомненно, связано со своевременной диагностикой заболевания и адекватным лечением.

Согласно многочисленным исследованиям, РЭ у женщин репродуктивного возраста развивается на фоне гиперпластического эндометрия. Однако существует мнение, что злокачественный процесс в некоторых случаях может развиваться на фоне атрофического эндометрия. Собственные исследования показывают, что частота развития РЭ на фоне гиперпластического эндометрия наиболее высока в репродуктивном возрасте. В этом же возрастном периоде наиболее часто отмечена атипическая железистая



гиперплазия эндометрия (65,2%). Почти у половины больных моложе 35 лет (47,8%) РТМ развивается на фоне атипической гиперплазии эндометрия, у 36,2% – на фоне гиперпластичного эндометрия. В противоположность указанным особенностям, у пациенток после 45 лет увеличивается доля атрофичного и смешанного эндометрия. По всей вероятности, различная характеристика пролиферативной активности эндометрия, на фоне которой возникает РТМ, обусловлена различными патогенетическими механизмами развития злокачественного процесса эндометрия у больных РЭ разных возрастных групп. Общеизвестно, что большинство аденокарцином эндометрия относят к эндометриоидному типу, который составляет почти 90% злокачественных опухолей тела матки [15]. По нашим данным, у 73,1% больных РТМ преобладала наиболее благоприятная гистоструктура опухоли – эндометриоидная аденокарцинома. Выявленная закономерность в распределении всех пациенток по гистологическому типу опухоли с преимущественным преобладанием эндометриоидной аденокарциномы характерна также и для лиц молодого возраста. Реже наблюдались серозно-папиллярная – 366 (11,4%), светлоклеточная – 65 (2,0%), муцинозная аденокарцинома – 8 (0,2%), аденокарцинома с плоскоклеточной метаплазией – 180 (5,6%) и плоскоклеточный рак – 30 (0,9%) – формы с более агрессивным течением, частота которых сопряжена с увеличением возраста.

Вывод. Рак эндометрия все чаще признается опухолью гетерогенной природы. Для ранних стадий заболевания в настоящее время разработаны и практикуются хирургические вмешательства с последующей лучевой и (или) химиотерапией на основе гистопатологических параметров.

Литература

1. Endometrial cancer of the very elderly: management and survival in the Francogyn population / F.A. Martin, L. Dion, K. N. Timoh [et al.] // Eur J Surg Oncol. – 2023. – Vol. 49 (5). – P. 1023-1030.
2. Endometrial cancer: ESMO clinical practice guideline for diagnosis, treatment and follow-up / A. Oaknin, T.J. Bosse, C.L. Creutzberg [et al.] // Ann Oncol. – 2022. – Vol. 33 (9). – P. 860-877.
3. Endometrial carcinoma molecular subtype correlates with the presence of lymph node metastases / A. Jamieson, E.F. Thompson, J. Huvila [et al.] // Gynecol Oncol. – 2022. – Vol. 165 (2). P. 376-384.
4. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in the blood serum of patients with cutaneous leishmaniasis // New Den Medicine. - Bukhara, 2023. - № 5 (55). - P. 638-643.



5. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in the blood serum of women wearing copper-containing intrauterine devices // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2023. - № 6 (56). - P. 2-7.
6. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2023. - № 8 (58). - P. 103-107.
7. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2024. - № 2 (64). - P. 420-426.
8. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Immediate and long-term results of surgical treatment of genital prolapse in elderly women // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2025. - № 3 (77). - P. 201-207.
9. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Efficiency of various methods of treatment of women with genital prolapse // *News of dermatovenerology and reproductive health*. - Tashkent, 2025. - № 2 (109). - P. 30-33.
10. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. genetic mechanisms of development of endometrial hyperplastic processes in women in menopausal age // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2025. - № 3 (77). - P. 207-211.
11. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Морфологические изменения эндометрия при гиперплазии // *Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья*. - Ташкент. - 2025. - № 2 (109). - P. 12-14.
12. Khamdamova M.T., Umidova N.N. Генитальный эндометриоз – болезнь активных и деловых женщин // *Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья*. - Ташкент. - 2025. - № 2 (109). - P. 33-14.
13. Khamdamova M.T., Akramova D.E. Генетические аспекты генитального пролапса у женщин репродуктивного возраста // *New Den Medicine*. - Bukhara, 2024. - № 2 (64). - P. 420-426.
14. Evaluation of treatment effects in patients with endometrial cancer and POLE mutations: An individual patient data meta-analysis / J.N. McAlpine, D.S. Chiu, R.A. Nout [et al.] // *Cancer*. – 2021. - Vol. 127 (14). – P. 2409-2422.
15. Exclusion of older adults from cancer clinical trials: review of the literature and future recommendations / I.M. Bumanlag, J.A. Jaoude, M.K. Rooney [et al.] // *Semin Radiat Oncol*. – 2022. – Vol. 32 (2). – P. 125-134.



LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK KOMPONENTLARIDA MADANIYLIKNING AKS ETISHI

Tolibova Muhabbat,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezis o‘zbek tilshunosligida leksik birliklarning semantik komponentlarida (denotativ, konnotativ va kulturema) madaniylikning aks etishini lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qiladi. Leksemaning milliy tafakkur, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribani ifodalashi Nazar Eshonqulning “Qo‘l”, “Maymun yetaklagan odam” va “Bepoyon osmon” hikoyalarida ko‘rib chiqiladi. Tahlil obyekti sifatida “qo‘l”, “non”, “surat”, “chol”, “osmon”, “rizq”, “ota” kabi leksik birliklar tanlangan.

Аннотация Тезис анализирует отражение культурности в семантических компонентах лексических единиц в узбекской лингвистике на материале рассказов Назара Эшонкула «Кўл», «Маймун йетаклаган одам» и «Бепоён осмон» с позиций лингвокультурологии. Рассматриваются денотативный, коннотативный и культурный (кulturema) слои лексем как отражение национального мышления, системы ценностей и социального опыта. Объектом анализа выбраны лексические единицы «кўл», «нон», «сурат», «чол», «осмон», «ризк», «ота».

Abstract The thesis analyzes the reflection of culturality in the semantic components of lexical units in Uzbek linguistics based on Nazar Eshonkul’s stories “Qo‘l”, “Maymun yetaklagan odam” and “Bepoyon osmon” from the perspective of linguoculturology. The denotative, connotative, and cultural (kulturema) layers of lexemes are examined as expressions of the nation’s mentality, value system, and social experience. The object of analysis includes lexical units such as “qo‘l” (hand), “non” (bread), “surat” (picture), “chol” (old man), “osmon” (sky), “rizq” (sustenance), “ota” (father).

Kalit so‘zlar: leksik birliklar, semantik komponentlar, madaniylik (kulturema), lingvokulturologiya, Nazar Eshonqul, “qo‘l”, “non”, “rizq”, milliy tafakkur.



Ключевые слова: лексические единицы, семантические компоненты, культурность (культурема), лингвокультурология, Назар Эшонкул, «қўл», «нон», «ризқ», национальное мышление.

Keywords: lexical units, semantic components, culturality (kulturema), linguoculturology, Nazar Eshonkul, “qo‘l”, “non”, “rizq”, national mentality.

Zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Leksik birliklar nafaqat nominativ vosita, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy tajribasini saqlovchi lingvomadaniy kodlardir. V.A. Maslova lingvokulturologiyada leksemaning semantik komponentlarida madaniy qatlam (kulturema) mavjudligini asoslab, uni “madaniyatning til orqali ifodalangan bo‘lagi” deb ta’riflaydi [Malova, 2001:104]. O‘zbek tilshunosligida D. Jumaniyozova va Sh. Rahmatullayevning ishlarida leksik birliklarning madaniy semantikasi muhim o‘rin tutadi.

Ushbu tezisning dolzarbligi globalizatsiya sharoitida milliy leksikaning madaniy qatlamini saqlash zarurligidadir. Tadqiqot maqsadi – leksik birliklarning semantik komponentlarida madaniylikning aks etish mexanizmlarini Nazar Eshonqul hikoyalari misolida aniqlashdir. Vazifalar: nazariy asoslarni o‘rganish, amaliy tahlil o‘tkazish va xulosalar chiqarish.

1. Leksik birliklarning semantik komponentlari va madaniylikning nazariy asoslari

Leksema semantik jihatdan ko‘p qatlamli tuzilishga ega: denotativ (asosiy ma’no), konnotativ (qo‘shimcha, emotsional) va madaniy (lingvokulturologik) komponentlar [Rahmatullayev, 2006: 67]. Komponentli tahlil usuli (N. Komlev, A. Ufimtseva) so‘z ma’nosini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Lingvokulturologiyada kulturema – madaniyatning til birliklarida aks etgan elementi – alohida o‘rin tutadi.

D. Jumaniyozova ta’kidlaganidek, lingvokulturologiya til birliklarini madaniy va ijtimoiy kontekstda o‘rganadi. O‘zbek tilida leksik birliklarning madaniy komponenti milliy qadriyatlar (mehmondo‘stlik, oilaviy hurmat, rizq, baraka) bilan bog‘liq. Semantik maydonlar nazariyasi (G. Gak) leksik birliklarni madaniy konseptlar atrofida guruhlash imkonini beradi. Nazar Eshonqul hikoyalarda bu birliklar ramziy va psixologik qatlamda yangi ma’nolarga ega bo‘ladi.

2. Nazar Eshonqul hikoyalarda leksik birliklarning semantik komponentlarida madaniylikning amaliy tahlili



N. Eshonqulning “Qo‘l”, “Maymun yetaklagan odam” va “Bepoyon osmon” hikoyalarida leksik birliklar milliy-madaniy stereotiplarni ochib beradi.

1. “Qo‘l” hikoyasidagi “qo‘l” leksemasi. Denotativ komponent – “tana a’zosi”. Konnotativ – “yordam, kuch, o‘g‘rilik”. Madaniy komponent esa “rizq”, “baraka”, “mehnat” va oilaviy qadriyatni aks ettiradi: “Oilada oltita jon, ammo ovqatda yettinchi qo‘l ham bor edi”. Bu birlik o‘zbek madaniyatidagi “halol rizq”, “ota ruhining qaytishi” va “oxirzamon alomati” stereotiplarini ifodalaydi. Qo‘lning “begona” va “mehrli” tabiati oila va mahalla qadriyatlarining inqirozini ko‘rsatadi.
2. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi “non” va “surat”. “Non” denotativ jihatdan “bug‘doy mahsuloti”, konnotativ va madaniy jihatdan “muqaddas rizq”ni bildiradi: “nonni bemalol sindirdi, og‘ziga tutdi”. Cholning ovqatlanishi nonni hurmatsiz iste‘mol qilish orqali “keksa odamning jamiyatdagi o‘rni” stereotipini buzadi. “Surat” leksemasi esa “badiiy meros” va “sovet o‘tmishi”ni ifodalaydi: “yigirmanchi yillardagi suratlaringizni”. Bu birlik xalqning tarixiy tajribasi va falsafiy izlanishlarini aks ettiradi.
3. “Bepoyon osmon” hikoyasidagi “osmon” va “ota”. “Osmon” denotativ – “osmon qatlami”, madaniy – “bepoyonlik, taqdir va ozodlik”ni bildiradi. Oilaviy munosabatlarda “ota” leksemasi “hurmat va mas‘uliyat” stereotipini ochib beradi. Bu birliklar o‘zbek mentalitetidagi “oilaviy nasl davomi” va “ilohiy qismat” qadriyatlarini lingvomadaniy jihatdan ifodalaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, leksik birliklarning semantik komponentlarida madaniylik nafaqat konnotatsiya darajasida, balki kognitiv va axloqiy qatlamlarda ham mavjud. Eshonqul hikoyalarida ular jamiyatdagi inqiroz va milliy o‘zlikni saqlash vositasi sifatida ishlatiladi.

Xulosa

Leksik birliklarning semantik komponentlarida madaniylikning aks etishi lingvokulturologik tadqiqotning asosiy obyektidir. Nazar Eshonqul hikoyalari misolida ko‘rib chiqilganidek, kulturema leksemaning ajralmas qismi bo‘lib, xalqning mentaliteti va qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazadi. Tadqiqot natijalari tarjima, leksikografiya va til o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin. Kelgusida boshqa yozuvchilar ijodi bilan qiyosiy tahlilni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jumaniyozova D. Lingvokulturologiyaning tilshunoslikdagi ahamiyati // Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025.
2. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Akademiya, 2001.



3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining leksikologiyasi. – T.: Fan, 2006.
4. Eshonqul N. Qo'1 // kh-davron.uz, 2017.
5. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam // ziyouz.com, 2013.
6. Eshonqul N. Bepoyon osmon (hikoya matni va tahlillar) // tilvaadabiyot.uz va boshqa manbalar, 2024.
7. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – T.: Fan, 2015.



BOLALARDA ANTIBIOTIKLARGA REZISTENT PNEVMONIYA: POSTBIOTIK BIODANATUM ASOSIDAGI YANGICHA YONDASHUV

Зоирова А., Холтаева Ф.

Андижон Давлат тиббиёт институти.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi bolalarda antibiotiklarga rezistent pnevmoniya davosida postbiotik Biodanatumning klinik va immunologik samaralarini baholashdan iborat bo'ldi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot 2022–2025 yillarda Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining pediatriya bo'limida olib borildi. Ushbu davrda pnevmoniya tashxisi qo'yilgan va antibiotiklarga rezistentlik belgilari aniqlangan jami 96 nafar 3–12 yoshli bolalar kuzatuvga olindi. Har bir bemorda bakteriologik ekish va antibiotiklarga sezuvchanlik testlari o'tkazilib, rezistentlik darajasi tasdiqlandi. Shundan so'ng bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruhga kirgan 48 nafar bola standart antibakterial davolash bilan birga postbiotik Biodanatumni 10 kun davomida peroral qabul qildi, nazorat guruhidagi 48 nafar bemor esa faqat standart terapiya oldi.

Baholash mezonlari sifatida klinik belgilar dinamikasi, tana harorati pasayish tezligi, C-reaktiv oqsil (SRB) darajasi, IL-6 va TNF- α sitokinlari konsentratsiyasi, shuningdek, asoratlar chastotasi o'rganildi. Klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, asosiy guruhda isitma tezroq pasaydi, yo'tal va nafas qisilishi kabi simptomlar nazorat guruhiga nisbatan qisqa muddatda kamaydi. Laborator ko'rsatkichlarda ham sezilarli farqlar qayd etildi: SRB darajasi 5-kuniga 52,3 foizga kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 31,7 foizni tashkil etdi. IL-6 va TNF- α darajalari mos ravishda 45,8% va 41,2% ga pasayib, yallig'lanish jarayonining tezroq bartaraf etilganini ko'rsatdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosiy va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farqlarni ko'rsatdi. Klinik kuzatuvlar shuni tasdiqladiki, asosiy guruhda (postbiotik Biodanatum qo'llangan bolalar) tana harorati o'rtacha $2,1 \pm 0,4$ kun tezroq normallashti. Nazorat guruhida esa isitma davomiyligi $4,8 \pm 0,6$ kunni tashkil etdi. Yo'tal intensivligi asosiy guruhda 3-kuniga sezilarli darajada kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida bu o'zgarish 5–6-kunlarda kuzatildi. Nafas qisilishi simptomlari ham asosiy guruhda tezroq bartaraf etildi: 72 soat ichida 68% bolada klinik yaxshilanish qayd etildi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 43%ni tashkil etdi.

Laborator ko'rsatkichlar ham sezilarli farqni ko'rsatdi. C-reaktiv oqsil (SRB) darajasi asosiy guruhda 5-kuniga 52,3% ga kamaydi (o'rtacha $18,6 \pm 2,1$ mg/l dan $8,9 \pm 1,7$ mg/l gacha), nazorat guruhida esa faqat 31,7% ga pasaydi ($19,1 \pm 2,4$ mg/l dan $13,0 \pm 2,2$ mg/l gacha). IL-6 darajasi asosiy guruhda 45,8% ga kamayib, $42,7 \pm 5,3$ pg/ml dan $23,1 \pm 4,2$ pg/ml gacha tushdi, nazorat guruhida esa faqat 27,4% ga pasaydi. TNF- α konsentratsiyasi asosiy guruhda 41,2% ga kamaydi ($36,4 \pm 4,8$ pg/ml dan $21,4 \pm 3,9$ pg/ml gacha), nazorat guruhida esa 24,6% ga pasaydi.



Asoratlar chastotasi ham sezilarli darajada farq qildi. Asosiy guruhda bronxoobstruktiv sindrom va pnevmoniyaning cho‘zilgan shakli 12,5% bolada kuzatildi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 27,1%ni tashkil etdi. Shuningdek, asosiy guruhda ichak mikroflorasi holati yaxshilanganligi qayd etildi: disbioz belgilari 10 kunlik davolashdan so‘ng 64% bolada yo‘qolgan, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich faqat 29%ni tashkil etdi.

Muhokama. Olingan natijalar bolalarda antibiotiklarga rezistent pnevmoniya davosida postbiotik Biodanatumni qo‘llashning klinik va immunologik afzalliklarini yaqqol ko‘rsatib berdi. Klinik kuzatuvlar asosiy guruhda isitma tezroq pasayganini, yo‘tal va nafas qisilishi kabi simptomlar qisqa muddatda kamayganini tasdiqladi. Bu esa postbiotikning nafaqat mahalliy, balki tizimli ta’sirga ega ekanini ko‘rsatadi.

Laborator ko‘rsatkichlar ham muhim dalillarni taqdim etdi. SRB, IL-6 va TNF- α darajalarining sezilarli pasayishi yallig‘lanish jarayonining tezroq bartaraf etilganini bildiradi. Bu holat postbiotikning immunomodulyator xususiyatlarini tasdiqlaydi. Ayniqsa, IL-6 va TNF- α kabi provospalitel sitokinlarning kamayishi organizmda yallig‘lanish mediatorlari faolligining pasayishini ko‘rsatadi. Bu esa antibiotiklarga rezistent bakteriyalar fonida ham klinik yaxshilanishga erishish imkonini beradi.

Asoratlar chastotasining asosiy guruhda ikki baravarga kamaygani ham klinik jihatdan katta ahamiyatga ega. Bronxoobstruktiv sindrom va cho‘zilgan pnevmoniya holatlarining kamayishi postbiotik qo‘llashning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ichak mikroflorasi muvozanatining tiklanishi va disbioz belgilari kamayishi Biodanatumning qo‘shimcha afzalligi sifatida baholanishi mumkin. Bu esa bolalarda umumiy immunitetni mustahkamlash va qayta kasallanish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosalar. Muhokama qilinayotgan natijalar postbiotik Biodanatumni antibiotiklarga rezistent pnevmoniya davosiga qo‘shish klinik amaliyotda samarali va xavfsiz yondashuv ekanini tasdiqlaydi. Bu yondashuv nafaqat simptomlarni tezroq bartaraf etadi, balki laborator ko‘rsatkichlarni normallashtiradi, asoratlar xavfini kamaytiradi va bolalarda umumiy sog‘lomlanish jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli, kelajakda postbiotiklarni pediatriya amaliyotiga keng joriy etish dolzarb va zarur hisoblanadi.



MAVLONO LUTFIY TUYUQLARIDA SO‘Z SAN‘ATI VA TAJNIS

Normatova Lobar Dilshod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mavlono Lutfiyning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shoirning lirik merosi, xususan, tuyuq janridagi asarlari tahlil qilinadi. “Yo qila”, “Bandamen”, “Yoshini” tuyuqlari misolida tajnis san‘ati va badiiy ifoda vositalari izohlanadi. Shuningdek, tuyuq janrining o‘ziga xos xususiyatlari va uning turkiy adabiyotdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Mavlono Lutfiy, tuyuq, tajnis, mumtoz adabiyot, lirik janr, badiiy san‘at, o‘zbek adabiyoti.

Annotation: This article examines the role and significance of Mavlono Lutfiy in Uzbek classical literature. It analyzes the poet’s lyrical heritage, particularly the tuyuk genre. Using the examples of “Yo qila,” “Bandamen,” and “Yoshini,” the study explains the use of tajnis (paronomasia) and artistic expressive devices. The specific features of the tuyuk genre and its place in Turkic literature are also highlighted.

Keywords: Mavlono Lutfiy, tuyuk, tajnis, classical literature, lyrical genre, poetic devices, Uzbek literature.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение Мавлоно Лутфи в узбекской классической литературе. Анализируется лирическое наследие поэта, особенно жанр туюк. На примере туюков «Yo qila», «Bandamen», «Yoshini» раскрываются особенности таджниса и художественных средств выразительности. Также освещаются характерные черты жанра туюк и его место в тюркской литературе.

Ключевые слова: Мавлоно Лутфи, туюк, таджнис, классическая литература, лирический жанр, художественные средства, узбекская литература.

Lutfiy — XV asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotining eng mashhur lirik shoiri. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni «malik ul-kalom», ya’ni «so‘z podshosi» deb e’zozlagan. Manbalarda taxallusi oldidan «ulug‘ ustod» ma’nosidagi «Mavlono» sifatining qo‘shib tilga olinishi ham shundan. Obro‘yi va shuhrati shu darajaga yetgan ediki, Alisher Navoiy uni o‘zining ustozlaridan biri deb biladi. Buni shoirlar haqidagi «Majolis un-nafois» tazkirasidagi shu ulug‘ shoir haqida aytilgan quyidagi iliq so‘zlar ham



isbotlaydi: «Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi va turkcha devoni mashhurdur». Mavlona Lutfiy haqida mumtoz adabiyotda ham, hozirgi kun adabiyotida ham iliq fikrlar berilgan. Lutfiy lirikasi g‘azal, ruboiy, tuyuq, muxammas, musaddas, fard va boshqa janrlarga juda boy sanaladi. Yuqorida sanab o‘tilgan janrlar orasida tuyuq janri alohida mavqega ega. Mumtoz adabiyotda tuyuq janri 4 misradan iborat bo‘lishi kerak. Tuyuq ham ruboiylar kabi a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qofiyalanadi. Tuyuqda qofiyaga olingan so‘zlar tajnisli bo‘lishi kerak, ya’ni omonim yoki shakldosh so‘zlar turkumidan tashkil topgan bo‘lishi lozim. Tuyuq janri sof turkiy lirik janr sanaladi. Bu janrda mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Atoiy, Sakkokiy va boshqa shoirlarimiz sermahsul ijod qilishgan. Quyida Mavlono Lutfiyning “Yo qila”, “Yoshini”, “Bandamen” tuyuqlarining tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Yo qila

Qomatimni necha qoshing yo qila,

Necha hajr o‘ti jonimda yoqila.

G‘amza birla to‘kti qonim ul sanam,

To hinotek qon elina yoqila.

Ushbu tuyuqda “yo qila” so‘zlari orqali tajnis san’ati hosil qilingan. Lirik qahramon qomatimni necha yoshing yoy qiladi, ya’ni bukadi, egiltiradi demoqda. Jonimda necha hajr o‘ti yoqiladi. G‘amza (ko‘z qoqish) bilan u sanam qonimni to‘kdi, endi xinodek qon qo‘liga surtiladi. Bu yerda shoir qon bilan hino (xina) rangi o‘rtasidagi o‘xshashlikdan ustalik bilan foydalangan.

Bandamen

Men sening ishqingdin, ey dil, bandamen,

Vah, qachon eytkayman ul dilbanda men.

Bevafolarg‘a meni qilding asir,

Sen menga sultonsan, ey dil, bandamen.

Ushbu tuyuqning tajnisi — “dil bandamen” so‘zlari. Birinchi misrada “dil bandamen” — yurak, bandaman. Ikkinchi misrada “dilbanda men” — dilbandga men. To‘rtinchi misrada “dil, banda men” — yurak, qulman.

Yoshini

Garchi qurutmas ko‘zumning yoshini,



Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.

Yig'lama ko'p, bu vujuding ishq o'ti,

Ne qurug'in qo'yg'usi, ne yoshini.

Ushbu tuyuqning tajnisi sifatida “yoshini” so'zi keltirilgan. Birinchi baytda “ko'zumning yoshini” — ko'z yoshini deyilmoqda. Ikkinchi baytda “oyning yoshini” — umrini, uchinchi baytda esa “ne qurug'ini qo'yadi, ne yoshini” — na ho'lini, na qurug'ini kabi ifodalanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Lutfiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lib, uning lirik merosi o'zining badiiy mukammalligi va mazmunan boyligi bilan ajralib turadi. Shoir tuyuq janrida ham yuksak mahorat ko'rsatib, tajnis san'atidan unumli foydalangan. “Yo qila”, “Bandamen”, “Yoshini” kabi tuyuqlari orqali u so'z o'yinlari, ko'p ma'nolilik va nozik badiiy ifoda vositalarini mahorat bilan qo'llaganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, Lutfiy ijodi keyingi davr o'zbek adabiyotiga, xususan, Alisher Navoiy kabi ulug' shoirlar ijodiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning asarlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham adabiy-estetik ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois Mavlono Lutfiy merosini o'rganish va targ'ib etish o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Mavlono Lutfiy. Devon. – Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Qayumov A. Qadimgi turkiy adabiyot. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Hayitmetov A. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.



XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATIDA ARUZNAVIS IJODKORLAR FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Bozorova Moxira Aliyarovna

Toshkent amaliy fanlar
universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada XX asr o'zbek she'riyatida aruz vaznida ijod qilgan shoirlar faoliyati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Aruz tizimining tarixiy ildizlari, jadid davri va sovet mafkurasi sharoitidagi holati hamda uning yashovchanlik xususiyatlari yoritiladi. Ayniqsa, Nabixon Chustiy ijodi misolida mumtoz poetik an'ananing zamonaviy mazmun bilan uyg'unlashuvi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida aruz nafaqat poetik tizim, balki milliy madaniy xotira timsoli sifatida ham ahamiyat kasb etishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: aruz, aruznavis shoir, XX asr she'riyati, mumtoz an'ana, Nabixon Chustiy, poetika, milliy o'zlik.

Annotation: This article analyzes the activities of aruz-based poets in 20th-century Uzbek poetry from a scientific and theoretical perspective. The historical roots of the aruz system, its condition during the Jadid period and Soviet ideology, and its vitality are examined. In particular, the harmony between classical poetic tradition and modern content is revealed through the example of Nabixon Chustiy's творчество. The study concludes that aruz represents not only a poetic system but also a symbol of national cultural memory.

Keywords: aruz, classical poetry, 20th century Uzbek poetry, Nabixon Chustiy, poetic tradition, national identity.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida eng murakkab va ziddiyatli davrlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu asr davomida ijtimoiy-siyosiy tuzum bir necha bor o'zgardi, mafkuraviy qarashlar yangilandi, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar turli bosimlarga duch keldi. Shunday sharoitda o'zbek she'riyati ham shakl va mazmun jihatidan sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Biroq ana shu murakkab jarayonlarda mumtoz adabiyot an'analari, xususan aruz vazni asosidagi she'riyat uzluksiz davom etdi.

Aruz vaznining o'zbek adabiyotidagi mukammal nazariy va amaliy asoslari Alisher Navoiy ijodida shakllangan. Navoiy aruzni "nazm mezon" sifatida baholab, uning badiiy imkoniyatlarini keng namoyish etgan. Keyingi asrlarda ham aruz she'riyatning yetakchi vazni sifatida xizmat qilgan.

XX asrga kelib barmoq vazni keng ommalashgan bo'lsa-da, aruz o'z mavqegini saqlab qoldi. Bu davrda milliy o'zlik, tarixiy xotira va mumtoz merosga sadoqat masalasi dolzarb ahamiyat



kasb etadi. Ana shu jarayonda aruznavis shoirlar mumtoz an'anani zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirishga harakat qildilar.

Mazkur maqolaning maqsadi — XX asr o'zbek she'riyatida aruznavis ijodkorlar faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish hamda Nabixon Chustiy ijodining o'ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat.

Aruz — Sharq she'riyatining ko'p asrlik tajribasiga tayangan, hijolarning uzun va qisqaligiga asoslangan mukammal metrik tizimdir. U dastlab arab adabiyotida shakllanib, keyinchalik fors-tojik adabiyoti orqali turkiy xalqlar, jumladan o'zbek adabiyotiga chuqur kirib kelgan. Aruz tizimi nafaqat ritmik-me'yoriy mezon, balki estetik va ma'naviy qadriyat sifatida ham shakllangan. Uning asosiy tushunchalari rukn, bahr, zihof, imola kabi nazariy birliklardan iborat. Hazaj, ramal, rajaz, mutaqorib kabi bahrlar o'zbek mumtoz she'riyatida keng qo'llanilgan. Shu bois XX asr sharoitida aruzning yashovchanligi masalasini zamonaviy adabiy jarayon bilan bog'lab tahlil qilish muhimdir.

O'zbek adabiyotida aruz nafaqat metrik vosita, balki estetik mezon vazifasini bajargan. U she'rning ichki musiqiyliigi, ritmik uyg'unligi va ma'naviy yukini belgilagan. Shu sababli tadqiqot e'tibori aynan XX asr adabiy jarayonida aruzning qo'llanish xususiyatlariga qaratiladi.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Jadidchilik harakati, keyinchalik sovet mafkurasi va mustaqillik arafasidagi milliy uyg'onish jarayonlari she'riyat mazmuni va shakliga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday murakkab sharoitda aruz vaznida ijod qilgan shoirlar — aruznavis ijodkorlar mumtoz poetik an'anani davom ettirish va uni zamonaviy ruh bilan boyitishda muhim rol o'ynadilar.

XX asr boshida jadidchilik harakati kuchaydi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari she'riyatda keng aks etdi. Barmoq vazni ommalashganiga qaramay, aruzdan ham faol foydalanildi. Jadid shoirlari aruz orqali milliy uyg'onish, ilm-ma'rifat targ'ibotini olib bordilar. Masalan, Abdurauf Fitrat ijodida aruz vazni orqali milliy uyg'onish, ilm-ma'rifat, ozodlik g'oyalari ifodalangan. Masalan, Abdurauf Fitratning "Sayha" she'rlar to'plamida aruz vaznidan foydalanilgan bo'lib, unda milliy uyg'onish va erkinlik g'oyalari ifodalangan. Shu bilan birga Fitrat "Adabiyot qoidalari" maqolasida eski shakllarni tanqidiy baholab, yangi poetik izlanishlar zarurligini ham ta'kidlaydi. U mumtoz shakldan foydalangan holda yangi ijtimoiy mazmuni ilgari surdi. Bu hol aruzning moslashuvchanligini ko'rsatadi. Xususan, Fitratning "Sayha" to'plamidagi ayrim she'rlarida mumtoz vazn saqlangan holda yangi ijtimoiy mazmun ilgari surilgan.

Jadid she'riyatida ramal bahri orqali ma'rifiy ruh ifodalangan. Bu jarayonda aruz an'anasi uzilmadi, balki mazmun jihatidan yangilandi

Sovet davrida adabiyot mafkuraviy vosita sifatida talqin qilindi. Ayrim manbalarda aruz "eskilik qoldig'i" Bu fikr sovet davrida adabiyotga berilgan mafkuraviy baholarda uchraydi. Masalan, ayrim adabiyotshunoslik manbalarida aruz "feodal davr poetikasi qoldig'i" sifatida



talqin qilinganini ko'rish mumkin. Shunga qaramay, amaliy ijod jarayonida ko'plab shoirlar aruzdan foydalanishda davom etganlar. G'azal janri orqali aruz yashab qoldi va rivojlandi.

Erkin Vohidov ayrim g'azallarini aruzda yozib, mumtoz ohangni zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirdi. Uning she'rlarida vaznning ravonligi va mazmunning chuqurligi bir-birini to'ldiradi. Erkin Vohidov ijodida aruz vazni mumtoz poetik an'anani zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ayniqsa g'azal janrida aruz imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Uning "O'zbekim" ruhidagi she'riy qarashlari milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni tiklash g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Erkin Vohidov g'azallarida mumtoz obrazlar – ishq, hijron, vatan, ma'naviyat kabi timsollar yangicha semantik talqinda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan u aruzni faqat an'anaviy shakl sifatida emas, balki zamonaviy badiiy tafakkurni ifodalash imkoniyatiga ega poetik tizim sifatida qo'llaydi.

Shuningdek, Abdulla Oripov ham aruzda ijod qilib, milliy ruh, tarixiy xotira va insoniy kechinmalarni ifodalagan. Bu shoirlar aruzni yangicha talqin etib, uni zamonaviy she'riyat bilan uyg'unlashtira oldilar.

XX asr aruznavis shoirlari orasida Nabixon Chustiy alohida o'rin tutadi. U mumtoz shaklni saqlagan holda zamonaviy mazmunni ifodalagan ijodkor sifatida e'tiborga loyiqdir.

Chustiy ijodida g'azal, muxammas, ruboiy kabi janrlar uchraydi. Uning she'rlarida hazaj, ramal kabi bahrlar keng qo'llanadi. Ishaq, vatan, ma'naviy poklanish, insoniy kamolot kabi mavzular aruz tizimi orqali badiiy ifoda topgan. Nabixon Chustiy ijodida aruz vazni nafaqat shakliy mezon, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning g'azallarida hazaj va ramal bahrlarining qo'llanishi lirikaning ichki musiqiylikini kuchaytiradi. Shoir ishq, vatan, ma'naviy poklanish kabi mavzularni mumtoz poetik timsollar orqali ifodalaydi. Shu bilan birga, u mumtoz obrazlarni zamonaviy hayotiy mazmun bilan boyitadi, natijada aruz tizimi yangi davr ruhiga mos badiiy ifoda vositasiga aylanadi.

Shoir mumtoz timsollar — gul, bulbul, sham', parvona obrazlaridan foydalangan holda, ularni zamonaviy ruh bilan boyitadi. Uning til uslubi ravon va xalqona bo'lib, murakkablikdan yiroqdir. Bu jihat aruzning XX asrdagi yashovchanligini namoyon etadi.

Shoir ijodida vatanparvarlik mavzusi muhim o'rin egallaydi:

Vatan deb urar yurak, jonim fido el yo'lida,

Tiriklik ma'nosini topdim muqaddas tuproqda.

Bu yerda aruz zamonaviy mazmunni ifodalash vositasiga aylangan. Bu yerda "zamonaviy mazmun" deganda shoir tomonidan milliy mustaqillik g'oyasi, vatanparvarlik tuyg'usi, insoniy erkinlik, ma'naviy uyg'unish kabi XX asr ijtimoiy tafakkuriga xos g'oyalarni ifodalash tushuniladi. Ya'ni aruz an'anaviy shakl bo'lsa-da, uning ichiga yangi davrning g'oyaviy mazmuni joylashtiriladi.



Chustiy vazn va qofiya tanlashda nihoyatda sinchkov. Uning g'azallarida matla' va maqta' qismlar mukammal qurilgan. Shoirning tili ravon va xalqona. U murakkab forsiy iboralardan ko'ra sodda ifodani ma'qul ko'radi (Qodirov, 2019). Qodirovning mazkur fikriga qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, Chustiy tilining ravonligi uning she'riyatini keng kitobxon ommasiga yaqinlashtiradi. Shoir murakkab forsiy-turkiy iboralarni kamaytirib, sodda va ta'sirchan ifodani tanlagani bilan ajralib turadi. Bu esa aruz tizimining faqat mumtoz adabiyot doirasida emas, balki zamonaviy o'quvchi uchun ham tushunarli poetik shakl bo'lib qolishini ta'minlaydi.

XX asr aruznavis shoirlari orasida Nabixon Chustiy g'azal janrini mumtoz an'ana asosida davom ettirgan ijodkor sifatida ajralib turadi. Uning g'azallarida vazn mukammalligi, mazmun chuqurligi va badiiy tasvir vositalarining uyg'unligi kuzatiladi. Bu holat shoirning g'azallarida matla' va maqta' qismlarining an'anaviy tuzilishda berilishi, qofiya va radif tizimining izchil saqlanishi hamda mazmunning baytlar davomida bosqichma-bosqich rivojlanishida kuzatiladi.

*Ishq o'ti ko'nglimda yonar, so'nmas aslo bu chiroq,
Dard ila topdim kamol, bo'ldi ko'nglim nurga to'q.*

G'azal — mumtoz she'riyatning yetakchi janri bo'lib, odatda 5–15 baytdan iborat bo'ladi. Unda ishqiy, falsafiy, tasavvufiy, axloqiy mavzular yetakchilik qiladi. Matla' (birinchi bayt) va maqta' (oxirgi bayt) g'azalning muhim qismlaridir. Shunga qaramay, g'azal janri XX asrda ham aruz an'anasini saqlab qolgan muhim poetik shakl sifatida e'tirof etiladi.

Chustiy g'azallarida ham an'anaviy tuzilish saqlanadi: matla'da asosiy g'oya beriladi, keyingi baytlarda u turli badiiy vositalar orqali ochib boriladi.

Mazkur bayt hazaj bahrida yozilgan. Uning vazn ko'rinishi quyidagicha:
Mazkur vazn Nabixon Chustiy g'azallarida ham uchrab, unda ishqiy-falsafiy mazmuni ifodalashga xizmat qiladi.

Bu vazn odatda ishqiy va lirika ruhidagi she'rlar uchun mos hisoblanadi. Vaznning ravonligi mazmunning ichki ohangi bilan uyg'unlashgan. Hijolarning cho'ziq-qisqa tizimi misraning musiqiyiligini ta'minlaydi. Aruzning qo'llanishi shoirning mumtoz poetik an'anaga sodiqligini ko'rsatadi. Mazkur holat Chustiy g'azallarida ritmik uyg'unlik va badiiy ohangni kuchaytiradi.

Yuqoridagi baytda ishq timsoli markaziy o'rinda turadi. "Ishq o'ti" obrazida ichki ruhiy yonish, ma'naviy poklanish g'oyasi mujassam. "So'nmas chiroq" esa abadiy nur, iymon va e'tiqod ramzidir.

Ikkinchi misrada "dard ila topdim kamol" ifodasi tasavvufiy ruhni anglatadi. Ya'ni inson iztirob va sinovlar orqali kamolotga erishadi. Bu g'oya mumtoz adabiyot an'anasiga xos bo'lib, ayniqsa Alisher Navoiy ijodida keng uchraydi.

G'azalning asosiy g'oyasi — ishq orqali kamolotga erishish. Bu yerda ishq nafaqat majoziy muhabbat, balki ilohiy va ma'naviy kamolot timsoli sifatida talqin etiladi. Shoir aruz vazni



orqali mazmuni salobatli va musiqiy shaklda ifodalaydi. G'azalning umumiy mohiyati ishq orqali insoniy kamolotga erishish g'oyasiga qurilgan. Matla'da ishq o'ti qalbni yorituvchi nur sifatida tasvirlanadi. Keyingi baytlarda dard, iztirob va ruhiy kechinmalar orqali insonning ma'naviy poklanish jarayoni ifodalanadi. Maqta'da esa shoir ishqni insonni komillikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. Shu tariqa g'azal ichki ruhiy kamolot g'oyasini bosqichma-bosqich ochib beradi.

Nabixon Chustiy g'azallari mumtoz shakl va zamonaviy ruh uyg'unligining yorqin namunasi hisoblanadi. Aruz vaznining mukammal qo'llanishi, badiiy tasvir vositalarining boyligi va mazmunning falsafiy chuqurligi uning ijodini XX asr aruznavis she'riyatining muhim namunalaridan biriga aylantiradi.

XX asrda aruzni saqlab qolish milliy o'zlikni asrash bilan bog'liq edi. Mumtoz merosga murojaat qilish tarixiy xotirani tiklashga xizmat qildi. Aruz nafaqat poetik vosita, balki madaniy xotira timsoli sifatida namoyon bo'ldi. Bugungi kunda ham aruz yangi avlod shoirlari tomonidan qayta o'rganilmoqda.

XX asr o'zbek she'riyatida aruznavis ijodkorlar muhim o'rin egallaydi. Murakkab mafkuraviy sharoitga qaramay, aruz an'anasi uzilmadi va yangi mazmun bilan boyidi. Jadid davridan sovet davrigacha bo'lgan jarayonda aruz milliy ruhni ifodalash vositasi sifatida xizmat qildi.

Nabixon Chustiy aruzning XX asrdagi yorqin namoyandalaridan biridir. Uning ijodi mumtoz shakl va zamonaviy mazmun uyg'unligining yorqin namunasi bo'lib, vazn mukammalligi, mazmun chuqurligi va til ravonligi bilan ajralib turadi.

Demak, aruz XX asrda tarixiy meros sifatida emas, balki faol poetik tizim sifatida yashadi va rivojlandi. XXI asrda ham u milliy she'riyatning muhim estetik asoslaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, Abdug'afur. *O'zbekiston adabiyoti metrikasi*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri, 2008, 12–23-betlar.
2. Zohidov, Yo'ldosh. *Aruz nazmining nazariyasi*. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2012, 45–50-betlar.
3. Normatov, Naim. *O'zbek she'riyati evolyutsiyasi*. Toshkent: Fan nashriyoti, 2017, 78–84-betlar.
4. Sharipov, Abduvali. *XX asr o'zbek shoirlari ensiklopediyasi*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2014, 129–131-betlar.
5. Qodirov, Murodjon. *Nabixon Chustiy ijodiyati tahlili*. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti nashri, 2019, 22–35-betlar.



ISLOM DINIDA AQIDAVIY MAKTABLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Panjiyeva Xurshida Avazovna

Termiz davlat universiteti

filologiya va tillarni o`qitish o`zbek tili ta`lim yo`nalishi 1-bosqich talabasi

panjiyevaxurshida07@gmail.com

A.Jo'rayev

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Islom dinidagi aqidaviy maktablarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aqida masalalarida aql va naqlning o'zni, iymon va taqdirga oid qarashlar ilmiy jihatdan izohlanadi. Maqolada Islom aqidasi chuqurroq anglash hamda aqidaviy maktablarning bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR: Aqida, aqidaviy maktablar, islom dini, islom aqidasi, diniy e'tiqod, diniy tafakkur, islom falsafasi, diniy qarashlar, ilohiyot, kalom ilmi, iymon tushunchasi, taqdir va iroda tushunchasi.

ASOSIY QISM: Dinshunoslik islom tarixida shakllangan diniy qarashlar, e'tiqodiy tamoyillar va ularning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganuvchi muhim fanlardan biridir. Har bir din o'zining aqidaviy asoslarga ega bo'lib, bu asoslar ma'lum tarixiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va tafakkur taraqqiyoti natijasida shakllangan. Aqidaviy maktablar esa muayyan din doirasida e'tiqod masalalarini tushuntirish, izohlash va tartibga solishga xizmat qilgan nazariy yo'nalishlardir. Ular diniy ta'limotning faqat tashqi ko'rinishi emas, balki ichki mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Aqidaviy maktablarning shakllanishi, avvalo, insonlarning borliq, yaratilish, ilohiy haqiqat, taqdir, yaxshilik va yomonlik, inson erki kabi masalalarga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq. Dinga e'tiqod qiluvchi kishilar uchun faqat ibodat yoki marosim emas, balki shu ibodatning ma'nosi, yaratuvchi bilan inson o'rtasidagi munosabat, payg'ambarlar vazifasi, oxirat va hisob-kitob masalalari ham muhim hisoblangan. Shu ehtiyoj tufayli aqidaviy fikrlash rivojlanib, turli maktablar yuzaga kelgan. Bu maktablar diniy haqiqatni turlicha izohlasada, ularning asosiy maqsadi e'tiqodni mustahkamlash, aqidani himoya qilish va diniy tushunchalarni izchil bayon etishdan iborat bo'lgan. Islom dinida aqidaviy maktablar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki islom nafaqat ibodat tizimi, balki mukammal hayotiy yo'l-yo'riqni ham o'zida mujassam etgan din sifatida e'tiqod masalalariga chuqur yondashadi. Islom tarixida aqida ilmi "kalom ilmi" nomi bilan ham



rivoj topgan. Bu ilm Allohning sifatlari, payg'ambarlik, vahiy, qiyomat, taqdir, imon va kufr kabi masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganadi. Kalom ilmining rivojlanishi bilan bir qatorda turli aqidaviy maktablar ham shakllana boshlagan. Dastlabki davrlarda musulmon jamoasida aqidaviy bahslar ko'proq siyosiy va ijtimoiy voqealar ta'sirida paydo bo'lgan. Ayniqsa, xalifalik davrida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlar, hokimiyat masalasi, gunohi kabira sodir etgan kishining holati, inson erki va taqdir masalasi musulmon olimlarini chuqur mushohadaga undagan. Natijada turli aqidaviy yo'nalishlar shakllangan. Ular orasida mo'taziliya, moturidiya, ash'ariya va boshqa oqimlar muhim o'rin egallaydi.

Mo'taziliya aqidaviy maktabi aqlga katta ahamiyat bergan yo'nalish sifatida tarixda mashhurdir. Bu maktab vakillari insonning fikrlash qudratini yuksak baholagan va diniy haqiqatlarni aql vositasida tushuntirishga harakat qilgan. Ular adolat va tavhid g'oyalarini markazga qo'ygan holda, Allohning mutlaq adolatligini ta'kidlashgan. Mo'taziliylar nazarida inson o'z amallarini o'zi yaratadi, shuning uchun u qilgan ishlari uchun to'liq javobgardir. Bu qarash insonning mas'uliyati va erkinligini asoslashda muhim bo'lsa-da, ayrim masalalarda an'anaviy e'tiqodiy tushunchalardan chekinish sifatida ham baholangan. Shunga qaramay, bu maktab musulmon tafakkurida mantiqiy fikrlash, munozara madaniyati va nazariy tahlilning rivojiga katta hissa qo'shgan.

Ash'ariya maktabi esa islom aqidasi himoya qilishga intilgan maktablardan biridir. Abul Hasan Ash'ariy asos solgan bu yo'nalish mo'taziliylardagi haddan tashqari aqlparastlikka nisbatan tanqidiy yondashgan. Ash'ariylar aqlni inkor etmagan holda, vahiy va naqlni ustun qo'yganlar. Ularning fikricha, inson ko'p narsani aqli bilan anglay oladi, biroq ilohiy haqiqatning to'la mohiyatiga faqat vahiy orqali anglab yetish mumkin. Ash'ariya maktabi Allohning qudrati, sifatlari, qazo va qadar masalalarida an'anaviy sunniy qarashlarni himoya qilib, islom olamida keng tarqalgan ta'limotga aylangan. Bu maktabning kuchli jihati shundaki, u diniy e'tiqodni mantiqiy dalillar bilan himoya qilga holda, vahiyga sodiqlikni saqlab qolishga harakat qilgan.

Moturidiya maktabi esa islom aqidaviy tafakkurining eng muhim va mo'tadil yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Abu Mansur Moturidiy tomonidan asos solingan bu maktab, ayniqsa, Movarounnahr va Turkiston hududlarida keng yoyilgan. Moturidiylikda aql va naql o'rtasidagi muvozanat alohida qadrlanadi. Ushbu maktab vakillari inson aqli orqali Allohning mavjudligini, ayrim ezgulik va yomonlik mezonlarini anglay olishini tan oladilar. Shu bilan birga, vahiy ilohiy haqiqatning mukammal manbai ekanini ta'kidlaydilar. Moturidiy ta'limotida insonning iroda erkinligi, mas'uliyati va e'tiqoddagi ongli yondashuv masalalari chuqur ishlab chiqilgan. Shu sababli bu maktab nafaqat diniy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Moturidiylikning o'ziga xos jihatlaridan biri uning bag'rikenglik,



mo'tadillik va fikriy barqarorlikka urg'u berishidir. Bu maktab e'tiqod masalalarida keskinlikdan uzoq turib, musulmon jamiyatida totuvlik va sog'lom tafakkurni qaror toptirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari diniy tafakkurida moturidiylikning ta'siri nihoyatda katta bo'lib, u asrlar davomida xalqning e'tiqodiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham ushbu maktabning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati saqlanib qolmoqda.

Aqidaviy maktablar faqat nazariy bahslar mahsuli bo'lib qolmagan, balki jamiyatning ma'naviy hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Chunki e'tiqod insonning ichki dunyosini, axloqiy mezonlarini, yaxshilik va yomonlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Agar aqida sog'lom va puxta asoslangan bo'lsa, jamiyatda ham ma'naviy barqarorlik kuchayadi. Aksincha, aqidaviy masalalardagi noto'g'ri talqinlar turli ixtiloflar, adashishlar va mutaassib qarashlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois tarix davomida olimlar sof aqidani saqlash, uni xalq ongiga to'g'ri yetkazish va zararli oqimlardan himoya qilishga alohida e'tibor berganlar. Dinshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, aqidaviy maktablarni o'rganish bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, bu maktablar muayyan dinning ichki tafakkuriy rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ular diniy qarashlarning shakllanishida tarixiy sharoit, siyosiy vaziyat va ilmiy muhitning qanchalik muhim o'rin tutishini anglashga yordam beradi. Uchinchidan, aqidaviy maktablarni bilish turli diniy g'oyalar o'rtasidagi farqni tushunish, sog'lom e'tiqodni zararli talqinlardan ajratish imkonini beradi. To'rtinchidan, bu bilim yosh avlodning diniy savodxonligini oshirishda, ularni yot g'oyalardan asrashda va tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv davrida aqidaviy masalalarga qiziqish yanada ortmoqda. Sababi, zamonaviy axborot makonida turli diniy qarashlar, oqimlar va talqinlar tez tarqalmoqda. Bunday sharoitda tarixiy shakllangan va ilmiy asosga ega aqidaviy maktablarni bilish insonni adashishdan saqlaydi. Ayniqsa, moturidiylik va ash'ariylik kabi mo'tadil sunniy yo'nalishlar bugungi kunda ham diniy bag'rikenglik, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ular diniy fanatizm, mutaassiblik va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, aqidaviy maktablarni o'rganish din va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ham ochib beradi. Inson tarix davomida faqat e'tiqod qilibgina qolmagan, balki e'tiqodini tushunishga, asoslashga, izohlashga ham intilgan. Aqidaviy maktablar aynan shu ehtiyojning mahsuli sifatida vujudga kelgan. Ular bir tomondan ilohiy haqiqatga sadoqatni saqlashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan inson tafakkurining imkoniyatlarini namoyon etgan. Shu jihatdan aqidaviy maktablar diniy fikr tarixining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Aqidaviy maktablar dinning nazariy asoslarini shakllantirgan, e'tiqodiy masalalarni tartibga solgan va jamiyat ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan muhim ilmiy yo'nalishlardir. Ularni o'rganish orqali nafaqat diniy meros, balki xalq tafakkuri, ma'naviy qadriyatlar va tarixiy taraqqiyot jarayonlarini ham



chuqurroq anglash mumkin. Ayniqsa, yoshlarni sogʻlom eʼtiqod, mustahkam dunyoqarash va maʼrifat ruhida tarbiyalashda aqidaviy maktablar haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, dinshunoslikda aqidaviy maktablar insoniyat tafakkurining muhim mahsuli sifatida diniy eʼtiqodning nazariy asoslarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda vujudga kelib, eʼtiqod masalalarini chuqur tahlil qilish, tushuntirish va tartibga solishga xizmat qilgan. Ayniqsa, islom dinidagi moturidiya, ashʼariya va moʼtaziliya kabi aqidaviy maktablar diniy tafakkur rivojida muhim oʻrin tutib, insonning aqliy va maʼnaviy kamolotiga oʻz hissasini qoʻshgan. Aqidaviy maktablar orqali inson eʼtiqodining mohiyati, Alloh va inson oʻrtasidagi munosabat, taqdir va erkinlik masalalari chuqurroq anglab yetiladi. Bu esa nafaqat diniy bilimlarni boyitadi, balki insonning dunyoqarashini kengaytirib, uni ongli va masʼuliyatli hayot kechirishga undaydi. Shu jihatdan, aqidaviy maktablarni oʻrganish bugungi kunda ham dolzarb boʻlib, u yosh avlodni sogʻlom eʼtiqod, mustahkam maʼnaviyat va tanqidiy fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.USMONOV "ISLOM AQIDASI VA KALOM" 2014
- 2.A.HASANOV "DINDHUNOSLIKKA KIRISH" 2015
- 3.N.JOʻRAYEV "DINSHUNOSLIK" 2008



AHMAD DONISH ILMIY MEROSIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHGA MUNOSABATI

Miltiqboyev Bobir Zokirovich

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Ahmad Donishning ilmiy-falsafiy merosida milliy o'zlikni anglash masalasi tahlil etiladi. Tadqiqotda mutafakkirning jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy qadriyatlar, milliy ong va madaniy o'ziga xoslik haqidagi qarashlari o'rganiladi. Shuningdek, Ahmad Donish asarlarida ilgari surilgan g'oyalar asosida milliy o'zlikni shakllantirish omillari, ularning tarixiy va zamonaviy ahamiyati yoritiladi. Muallif Donishning ma'rifatparvarlik faoliyati orqali milliy tafakkur va ijtimoiy ongni rivojlantirishga qo'shgan hissasini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari bugungi kunda milliy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlash jarayonida Ahmad Donish merosining muhim nazariy manba ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, milliy o'zlik, milliy ong, ma'rifatparvarlik, madaniy meros, ijtimoiy tafakkur, qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti, milliy identitet, falsafiy qarashlar.

XXI asrda globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniy xilma-xillik sharoitida milliy falsafa va tarixiy merosni chuqur o'rganish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy-ma'rifiy islohotlar, milliy g'oya va qadriyatlar asosida barqaror jamiyat qurish siyosati doirasida tarixiy shaxslarning ijtimoiy-falsafiy merosiga qayta nazar tashlanmoqda. Ahmad Donish o'z davrining ziyolisi, faylasufi, adibi va islohotchi mutafakkiri sifatida, madaniyat masalasini nafaqat ijtimoiy rivojlanish vositasi sifatida ko'rgan, balki uni xalqning ruhiy holati, tafakkuri, erkinligi va ma'rifatga bo'lgan intilishining markaziy omili sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, jamiyatdagi madaniy taraqqiyot siyosiy va iqtisodiy islohotlardan ham oldinda turishi lozim, chunki aynan madaniyat orqaligina insonlar ongini o'zgartirish, ularni yangicha tafakkurga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda shakllanayotgan yangicha tafakkur, milliy tiklanish, ijtimoiy-ma'naviy yangilanish sharoitida Ahmad Donishning madaniyatga bo'lgan munosabati, uning falsafiy qarashlari va u orqali bergan g'oyalari o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, uning asarlari bugungi kundagi islohotlarga g'oyaviy zamin bo'lishi mumkin.

XIX asr Markaziy Osiyo xalqlari hayotida o'ta murakkab va muhim o'zgarishlar davri bo'lgan. Bu davrda mavjud bo'lgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari ichki siyosiy kurashlar, ijtimoiy notinchlik va tashqi bosimlar ostida yashagan. Ayniqsa, bu davrda Rossiya



imperiyasining harbiy va siyosiy bosimi kuchayib, hududiy jihatdan o'z ta'sirini kengaytirishga urinayotgan edi.

Aynan shu tarixiy vaziyat, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jamiyatda chuqur madaniy-falsafiy muammolarni yuzaga keltirgan. Ijtimoiy adolatsizlik, savodsizlik, ilmsizlik va feodal tartiblar oqibatida xalq ommasi ma'naviy turg'unlikda yashayotgan edi. Bunday sharoitda madaniy uyg'onish, islohot va yangilanish g'oyalari paydo bo'la boshladi.

XIX asrda faoliyat yuritgan ziyolilar – xususan, Ahmad Donish, Munis, Ogahiy, Fozil Namangoniy kabi mutafakkirlar – jamiyatni madaniy-ma'naviy jihatdan uyg'otish, isloh qilish zarur deb bildilar. Ayniqsa, bu jarayonda madaniyat tushunchasi markaziy o'ringa chiqdi.

Sharq falsafasida madaniyat tushunchasi qadimdan mavjud bo'lib, bu tushuncha asosan “odamiylik”, “insonparvarlik”, “ilm va hunar”, “axloq” kabi ijtimoiy-falsafiy mazmunlarda ishlatilgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar madaniyatni inson kamoloti bilan bog'lashgan. G'arbda esa madaniyat tushunchasi XVIII–XIX asrlarda ijtimoiy taraqqiyotning mezoni sifatida qarala boshlagan (J. Herder, E. Tylor, O. Spengler, A. Toynbee va boshqalar).

Ahmad Donish ilmiy faoliyati davrda madaniyat, ilm-fan va ma'rifat jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi sifatida ko'rilgan. Donish ana shu umumiy madaniy-falsafiy harakatlarning ilg'or vakili bo'lib, o'z qarashlarida madaniyatni jamiyat rivoji, milliy uyg'onish va ijtimoiy adolat bilan bog'lagan.

Ahmad Donish yashab ijod qilgan davrda Buxoro diniy konservatizm, fan va tafakkur erkinligining cheklanishi, zo'ravonlik bilan boshqaruv kabi muammolar bilan yuzlashgan edi. Ammo shu bilan birga, Buxoro madaniyat markazi sifatida o'z mavqeini saqlab turgan. Bu yerda ko'plab madrasa va kutubxonalar mavjud bo'lgan, lekin ularning faoliyati asosan diniy ta'lim bilan cheklanib qolgan. Donish, bu turg'unlikka qarshi kurashgan. U zamonaviy fan, texnika, ijtimoiy institutlar haqida fikr yuritgan va bu orqali o'z xalqini uyg'otmoqchi bo'lgan. Uning “Risola dar adobi madaniyat” (Madaniyat odobi haqida risola), “Navodir ul-vaqoe” kabi asarlarida madaniyat, tafakkur, islohot, adolat, axloq kabi kategoriyalar chuqur yoritilgan.

Ahmad Donishning madaniyat haqidagi qarashlari uning yozma merosida, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy islohotlarga doir asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. U o'zining qarashlarini “Navodir ul-vaqoe”, “Risola dar adobi madaniyat”, “Tartibi mulk” va boshqa risolalarida bayon etgan. Donish nazarida madaniyat bu – insonning o'zini, jamiyatni va atrof-muhitni o'zgartira olishi, uni yanada adolatli, bilimli va ma'rifatli holga olib chiqishi mumkin bo'lgan kuchdir.

Ahmad Donishning madaniyat haqidagi fikrlariga ta'sir ko'rsatgan manbalarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Sharq falsafasi va ma'rifatparvarligi (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy);
2. Islom diniy-madaniy merosi (Qur'on, Hadislar, fiqh va kalom ilmlari);



3. Yevropa madaniyati va islohotlar tajribasi (Rossiyaga sayohati davomida o'rgangan tajriba).

Ushbu manbalar Donish tafakkurida uyg'unlashgan holda, o'ziga xos mustaqil falsafiy tizimni vujudga keltirdi. Bu tizimda madaniyat vositasi orqali jamiyatning inqirozdan chiqish yo'llari izohlangan.

“Navodir ul-vaqoe” Ahmad Donishning eng chuqur ijtimoiy-falsafiy asarlaridan biridir. Bu asar axloq, siyosat, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va ma'rifat haqidagi chuqur tahlillar bilan boyitilgan. Asarda madaniyat inson axloqiy tarbiyasining asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Donish, amir va ulamolarni savodsizlikda ayblab, xalqning orqada qolishining sabablarini jamiyatdagi madaniyat inqirozida ko'radi: “Aqlsiz rahbar xalqni zulmatda saqlaydi, ilmsiz ulamo dindan ham, dunyodan ham bexabar qiladi”.

Donishning nazarida madaniyat – bu insonda aql, idrok, axloq, javobgarlik, tafakkur uyg'otuvchi kuchdir. U bu asar orqali madaniyatning ijtimoiy rolini chuqur anglatib beradi. Donishning siyosiy-falsafiy qarashlari “Tartibi mulk” risolasida bayon etilgan. Bu asarda u davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibga doir o'z fikrlarini ilgari suradi. Donish nazarida davlatning barqarorligi ham madaniyatga, ya'ni xalqning ma'naviy va aqliy holatiga bog'liq: “Saltanat madaniyat bilan mustahkam bo'lur, jaholat esa har qanday kuchni yemirur”.

Bu fikrlar orqali Donish davlat idoralarida madaniyatli insonlar bo'lishini, boshqaruvda aql va ilm ustuvor bo'lishi kerakligini urg'ulagan. Bu yondashuv bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ahmad Donishning madaniyatga bag'ishlangan risolasi – “Risola dar adobi madaniyat” asarida insoniy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, adolat, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatilgan.

Asarda muallif madaniyatni faqat tashqi madaniylik – kiyinish, gapirish, odob-axloq emas, balki ichki ma'naviy yetuklik, tafakkur darajasi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish sifatida talqin qiladi. Bu jihatdan Donish zamonaviy pedagogik va axloqshunoslik g'oyalari bilan hamohang qarashlarga ega bo'lgan. Ahmad Donishning madaniyatga bag'ishlangan risolasi – “Risola dar adobi madaniyat” asarida insoniy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, adolat, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatilgan.

Ahmad Donish asarlarida madaniyat – ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy yetuklik, ilmiy va tafakkuriy yuksalish vositasi sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, haqiqiy islohotlar, faqat madaniyat orqali amalga oshiriladi. U bu g'oyani o'z asarlarida nazariy va amaliy jihatdan asoslagan. Donishning madaniyat haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, XXI asr ma'naviy yangilanishining falsafiy manbai bo'la oladi.

Ahmad Donish o'zining falsafiy qarashlarida jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri sifatida milliylik va diniy qadriyatlar uyg'unligini ko'rsatadi. U din va milliy qadriyatlarning bir-biriga zid emas, balki uyg'unlashgan holda mavjud bo'lishi kerakligini



ta'kidlagan. Donishning qarashicha, islom dini o'zbek xalqi qadriyatlarini bilan uyg'unlashgan holda ijtimoiy hayotni tartibga solishi mumkin. Buning uchun esa diniy ta'limotlar mahalliy an'analar bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. U, masalan, Qur'oni Karim va hadislar asosida ijtimoiy islohotlar zarurligini isbotlashga harakat qilgan.

Donish o'z asarlarida diniy fanlarni, ayniqsa fiqh, tafsir, hadis ilmlarini chuqur o'rganish bilan birga, ularni milliy urf-odatlar, ijtimoiy an'analar bilan uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surdi. Bu yondashuv, Donishning o'z davrida yangicha fikrlash va islohot zarurligi haqida bergan falsafiy asoslarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, uning "Risola dar tarbiyat va madaniyat" (Tarbiyat va madaniyat haqida risola) asarida keltirilgan mulohazalar, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni tiklash, milliy tarbiyani kuchaytirish, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish zarurati haqida bahs yuritilgan.

Bu g'oya bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy tiklanish va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi asosida yangi ijtimoiy g'oyalar shakllandi. Davlat siyosatida "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar Ahmad Donishning ilgari surgan fikrlari bilan uzviy bog'liq. Donishning qarashlarida milliy taraqqiyotga erishish uchun jamiyatda ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi haqida chuqur tahlillar mavjud. U o'zining "Navodir ul-vaqoe" asarida jamiyatdagi muammolarni ko'rsatib, ularni hal etishda bilim va madaniyat asosiy vosita bo'lishi kerakligini ilgari suradi.

Donish taraqqiyotning asosiy omili sifatida ma'naviy yuksalish, axloqiy yetuklik va ilmiy tafakkurni ko'rsatadi. U, ayniqsa, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, maktab va madrasalarni isloh qilish zarurligini ta'kidlagan. Uningcha, "ilmga asoslanmagan taraqqiyot uzoqqa bormaydi", degan g'oya milliy uyg'onish mafkurasining poydevoriga aylanishi kerak. Shuningdek, Donish tomonidan ilgari surilgan madaniy islohotlar konsepsiyasi o'zbek jamiyatining modernizatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qarashlariga ko'ra, milliy taraqqiyot quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur:

- Ta'lim-tarbiyaviy tizimni modernizatsiyalash;
- Diniy ta'limotlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish;
- Adabiy merosni xalq ongiga yetkazish;
- Fan va texnologiyani rivojlantirish;
- Ma'naviy-axloqiy me'yorlarni mustahkamlash.

Bu jihatlar orqali Donish O'zbekistonda madaniy uyg'onish davriga zamin yaratgan mutafakkir sifatida baholanadi. Uning qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham milliy taraqqiyot strategiyasida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ahmad Donish o'zining ilmiy, falsafiy va adabiy merosida milliy va madaniy qadriyatlarni yuqori darajada ta'kidlagan. Uning asarlarida milliylik va madaniyat masalalari,



ayniqsa, xalqning o'ziga xos identitetini anglash, uni saqlash va rivojlantirish zarurati keng yoritilgan. Donishning falsafasida madaniyatni xalqning o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy, va ma'naviy negizi sifatida ko'rish, uning taraqqiyotidagi o'rni, milliy mustaqillik va erkinlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan. Ahmad Donish o'zining ilmiy, falsafiy va adabiy merosida milliylik va madaniyatni eng muhim o'rinlardan biriga qo'ygan. Uning falsafasida madaniyat xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, tarixiy rivojlanishi va ma'naviy negizidir. Madaniyat va milliylik, nafaqat o'z vaqtida, balki hozirgi kunda ham har bir jamiyat uchun eng asosiy qadriyatlar sifatida qaraladi. Ahmad Donishning fikriga ko'ra, madaniyatning saqlanishi va rivojlanishi, milliy o'ziga xoslikning tiklanishi va mustahkamlanishi jamiyatning barqarorligini va taraqqiyotini ta'minlash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рачабов З. Ш. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. – Душанбе, 1964. – С. 282.
2. Багоутдинов А. М. Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад, 1961. – С. 282
3. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'unuy va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-17.
4. Гафуров Б. Г. Тольикон. Китоби 2. – Душанбе, 1985. – С. 280
5. Ленин В. И. Пробуждение Азии // Полн. Собр. Соч. Т. 23. – С. 145-146.



THE TENSION BETWEEN SOCIETY AND SELF: AN IDEOLOGICAL ANALYSIS OF MOTIVATIONAL CONSTRUCTS IN SAID AHMAD AND GEORGE ORWELL'S LITERATURE

Baxranova Nasiba Maksudovna

Affiliation: Lecturer, Department of English Language Practical Aspects, Uzbek State World
Languages University

baxranova.1998@icloud.com

Abstract: This study investigates the intricate tension between society and the self through an ideological lens, focusing on motivational constructs in the literature of Said Ahmad and George Orwell. By examining the ethical, cultural, and political determinants that shape character behavior, the research highlights how external societal pressures and internal psychological drives interact to influence decision-making and action. Said Ahmad's narratives emphasize moral responsibility, cultural identity, and social conformity, revealing the subtle ways in which collective norms mediate individual choices. In contrast, Orwell's works explore the overt imposition of political authority and systemic control, illustrating how external power structures constrain personal autonomy and shape motivational dynamics. Through comparative literary analysis, this paper elucidates the mechanisms by which ideology informs both personal agency and social expectations, offering insights into the universal interplay between internal motivations and external societal forces. The findings underscore the necessity of integrating ideological analysis into literary interpretation to fully comprehend character development and the ethical and social dilemmas portrayed in literature.

Keywords: Society and self, ideological analysis, motivational constructs, personal agency, social conformity, authoritarian influence, Said Ahmad, George Orwell, literary theory, comparative literature

Introduction

The tension between society and the self has long occupied a central position in literary discourse, reflecting the constant negotiation between collective norms and individual agency. In the works of Said Ahmad and George Orwell, this tension manifests through the ideological structuring of character motivations, revealing the mechanisms by which societal pressures influence ethical and personal decision-making. Ahmad's narratives frequently portray



characters grappling with moral obligations, cultural identity, and communal expectations, highlighting the nuanced interplay between conformity and personal integrity. Orwell, on the other hand, examines systemic oppression and authoritarian control, exposing how external forces manipulate internal motivations and restrict individual freedom. This study aims to comparatively analyze these two authors, focusing on the ideological underpinnings of motivational constructs. By exploring the ethical, social, and political contexts of character behavior, the research seeks to uncover the complex interdependence between individual agency and societal expectations, emphasizing the importance of ideology in shaping both personal and social dynamics within literature.

Materials and Methods:

The research employs a qualitative, comparative literary approach incorporating the following elements: **Text Selection:** Representative works of Said Ahmad and George Orwell were selected, emphasizing narratives that explore societal pressure, personal motivation, and ethical dilemmas. **Ideological Framework Analysis:** Each text was analyzed for underlying ideological structures, including cultural, moral, and political dimensions affecting character behavior. **Comparative Analysis:** A systematic side-by-side comparison of Ahmad's and Orwell's treatment of societal influence on personal motivation was conducted. **Thematic Coding:** Recurring motifs—such as obedience, resistance, moral conflict, and autonomy—were identified and coded for analytical evaluation. **Critical Interpretation:** Interpretations were informed by contemporary literary theory, including ideological criticism, social constructivism, and studies on personal agency within societal structures.

Results

Said Ahmad: Characters frequently experience moral conflict when personal desires contradict societal expectations. Motivations are mediated by cultural identity, ethical responsibility, and communal norms, illustrating subtle social influence on individual choice. **George Orwell:** Characters face overt systemic control. Authority and political ideology directly constrain personal agency, shaping decisions and actions according to institutionalized power structures. **Comparative Observations:** Both authors reveal that individual motivations cannot be considered in isolation; they are shaped through a dynamic interplay of internal desires and external pressures. Ahmad emphasizes ethical and cultural mediation, whereas Orwell highlights political and institutional enforcement. This indicates that ideology—whether cultural or political—remains a primary determinant of human behavior in literature.

Discussion



The analysis demonstrates that motivational constructs in literature are inseparable from ideological context. Ahmad's works highlight subtle social pressures and ethical frameworks, suggesting that conformity and moral responsibility shape behavior in culturally embedded ways. Orwell's narratives, conversely, depict coercive, authoritarian influences where external forces dominate personal agency, illustrating how ideology can manipulate internal motivations. This comparative study underscores the necessity of integrating ideological critique into literary interpretation. By analyzing both subtle cultural norms and overt political constraints, readers gain a deeper understanding of how society mediates individual choice. Additionally, the research contributes to contemporary literary theory by revealing the mechanisms through which literature interrogates power, moral responsibility, and personal autonomy.

Conclusion:

This study demonstrates that the tension between society and the self is a fundamental theme in both Said Ahmad and George Orwell's literature, reflecting the multifaceted interplay of internal motivations and external societal pressures. Said Ahmad's narratives reveal how ethical frameworks, cultural identity, and communal expectations subtly shape character behavior, highlighting the internal negotiation individuals undertake to balance personal integrity with social conformity. In contrast, Orwell emphasizes the overt influence of political authority, demonstrating how systemic control, propaganda, and institutionalized norms can restrict personal freedom and manipulate motivational structures. The comparative analysis reveals that while the mechanisms differ—Ahmad emphasizing moral and cultural pressures, and Orwell focusing on political and institutional constraints—the underlying principle remains consistent: individual motivations cannot be fully understood without considering the broader ideological and social context. This underscores the critical role of ideology in shaping human behavior and literary representation, emphasizing that literature functions both as a mirror and a critique of societal structures. Moreover, the study highlights several implications for literary theory and research. First, ideological analysis provides essential insight into the complex ways in which motivation, choice, and morality are interdependent with social structures. Second, understanding these mechanisms enhances interpretive depth, allowing scholars to appreciate the ethical and psychological dimensions of character development. Third, the comparative approach demonstrates that despite cultural and historical differences, human responses to societal constraints exhibit universal patterns, revealing the shared tension between autonomy and conformity.

References:

1. Ahmad, S. (2003). *Selected Stories*. Tashkent: National Publishing House.
2. Orwell, G. (1949). 1984. London: Secker & Warburg.



3. Ahmad, S. (1998). *Cultural Identity and Society*. Tashkent: Literary Press.
4. Orwell, G. (1937). *The Road to Wigan Pier*. London: Victor Gollancz Ltd.
5. Eagleton, T. (2011). *Ideology: An Introduction*. London: Verso.
6. Althusser, L. (1971). *Ideology and Ideological State Apparatuses*. London: Verso.
7. Said, E. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
8. Williams, R. (1977). *Marxism and Literature*. Oxford: Oxford University Press.
9. Foucault, M. (1980). *Power/Knowledge: Selected Interviews and Other Writings*. New York: Pantheon.
10. Bloom, H. (2000). *The Western Canon*. New York: Riverhead Books.



AUTENTIK MATNLAR ASOSIDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: USUL VA VOSITALAR

Shodiyeva Fazilat Farxodovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Kattayeva Feruza Shokirovna

ANNOTATSIYA. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tilni “to‘g‘ri” ishlatishdan tashqari, uni ijtimoiy vaziyat, muomala odobi, registr, qadriyat va madaniy norma bilan uyg‘un qo‘llash qobiliyatini anglatadi. CEFRning tavsifiy sxemasida til faoliyati doimo umumiy kompetensiyalar (jumladan, sotsiokultural va interkultural kompetensiya) hamda kommunikativ til kompetensiyalari (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik) bilan birga ishlashi qayd etiladi. Shundan kelib chiqib, autentik matnlar (maqsadli til va madaniyat jamoasi a‘zolari o‘sha jamoa a‘zolari uchun yaratgan matnlar) real sotsiolingvistik signallar, odob formulalari, madaniy ishoralar va diskurs odatlarining tabiiy manbai hisoblanadi. Ushbu maqola autentik matnlar asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usul va vositalarini CEFR Companion Volume (sotsiolingvistik moslik va plurimadaniy repertuar deskriptorlari), Council of Europe‘ning interkultural o‘lchov bo‘yicha amaliy qo‘llanmasi, ACTFLning autentik matnlar bilan ishlash bo‘yicha tamoyillari hamda autentik materiallar orqali interkultural kompetensiyani kuchaytirishga doir empirik tadqiqotlar (2020 va 2025) asosida tizimlashtiradi. Natija sifatida “matn–kompetensiya–topshiriq” zanjiriga qurilgan 6 bosqichli metodik protokol va baholash uchun minimal indikatorlar paketi taklif etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: autentik matn, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, interkultural kompetensiya, sotsiolingvistik moslik, registr, odob formulalari, CEFR, ACTFL, AIE, skaffoldlash, meditatsiya (mediation), refleksiya.

KIRISH. Autentik matnlar til o‘rgatishda “real hayot”ning eng yaqin modeli bo‘la oladi, chunki ular tabiiy til ishlatilishini, ijtimoiy rol va masofa (rasmiy–norasmiy), muomala odobi, madaniy qadriyatlar hamda jamiyat ichidagi diskurs odatlarini bir vaqtning o‘zida namoyon qiladi. ACTFLning metodik tavsiyalarida autentik matnlar “til va madaniyat guruhi a‘zolari tomonidan o‘sha guruh a‘zolari uchun yozilgan” manba sifatida ta‘riflanadi hamda aynan shunday “madaniy” matnlar bilan interpretativ o‘qish/tinglash vazifalarini skaffoldlash (qo‘llab-quvvatlash) va keyingi izohlash-topshiriqlar bilan birga tashkil etish zarurligi aytiladi. Bu yondashuv ijtimoiy-madaniy kompetensiyani faqat “ma‘lumot” sifatida berishdan ko‘ra, uni real matndan ma‘no chiqarish va vaziyatga mos qo‘llash orqali shakllantirishga xizmat qiladi.



Ijtimoiy-madaniy kompetensiya terminini tor ma'noda faqat "madaniyat haqida bilish" deb tushuntirish xato: CEFR tilni ijtimoiy harakat sifatida ko'radi va kommunikativ vazifani bajarishda umumiy kompetensiyalar (sotsiokultural/interkultural), kommunikativ til kompetensiyalari (lingvistik–sotsiolingvistik–pragmatik) hamda strategiyalar doimo birga ishlashini ta'kidlaydi. Demak, o'quvchi "madaniy fakt"ni bilsa-yu, lekin vaziyatda registri tanlay olmasa, odob formulasini qo'llay olmasa yoki boshqa madaniyat vakilining "normal" deb qabul qiladigan xatti-harakatini noto'g'ri talqin qilsa, kompetensiya to'liq shakllanmagan bo'ladi. CEFR Companion Volume'ning "Sociolinguistic appropriateness" shkalasida B1 darajada o'quvchi odob konvensiyalarining muhimlarini bilishi, ko'proq neytral registrda ko'p funksiyalarni bajarishi va boshqa jamoa urf-odatlarini, qadriyatlarini hamda e'tiqodlaridagi muhim farqlarni "kuzatib borishi" kerakligi ochiq yozilgan. Bu deskriptor ijtimoiy-madaniy kompetensiyani matnlar orqali o'qitishda nimani "o'lchash" mumkinligini ham ko'rsatadi.

